

O'zbekiston Respublikasi
Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik
markazi

Tarbiya

fanidan uslubiy qo'llanma



Toshkent 2025-yil

“Tarbiya” fanidan alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar bilan ishlashda o’qituvchilar (fan o’qituvchilari), maxsus pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun ishlab chiqilgan uslubiy qo’llanma 2025-yilning 25-mart kuni Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi huzuridagi “Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim” yo’nalishi bo’yicha Ilmiy-metodik kengashning 1-sonli yig’ilishida muhokama etilib, kengash qaroriga binoan nashrga tavsiya etildi.

Mualliflar: Risyukova Yuliya Vasilyevna
Alimova Gulmira Kabuljanovna
Mo’minov Sulton Akbar o’g’li

Taqrizchilar:

F.Qodirova	Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrasi mudiri, professor.
U.Xudayberdiyev	O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Inklyuziv ta’lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo’limi bosh mutaxassisi
G.Xasanova	Toshkent shahri, Bektemir tumani 290-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi inklyuziv ta’lim sinfi o’qituvchisi

Tahrirchi:

M.Kasimova	Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi
-------------------	---

Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun

“Tarbiya” fanidan alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar bilan ishlashda o’qituvchilar (fan o’qituvchilari), maxsus pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun mo’ljallangan.

2-sinf

Kirish

Har bir mamlakat taraqqiyotining muhim sharti yosh yetishib kelayotgan avlodni har tomonlama mukammal bo'lishi, jamiyatning kelajagi esa uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, ta'lim samaradorligini oshirish masalasi bugungi kundagi muhim vazifalardan biriga aylanib kelmoqda.

Ayniqsa davlatning ijtimoiy siyosatida voyaga yetmagan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ayniqsa ularga ta'lim berish, alohida e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, shuningdek, ularni jamiyatda o'z o'rinlarini egallashlariga ko'maklashish alohida ahamiyat kasb etadi.

So'ngi yillarda O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga munosib sharoit yaratish, ular ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish borasida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Yangi tahrirda qabul qilingan **“Ta'lim to'g'risida”gi** Qonunga ham inklyuziv ta'lim haqida modda kiritildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **50-moddasida “Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi”** jumlasining kiritilishi ham diqqatga sazovordir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'z sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda umumta'lim maktablarida bilim olishi, do'stona muhitni, teng huquqligining kafolatlanishi, turli xil zo'ravonlik hamda kamsitishlikka yo'l qo'ymaslik, shu bilan birga bir sinfda bir xil sharoitda ta'lim-tarbiya olishi ko'zda tutilgan.

Ushbu **“Tarbiya”** fanidan inklyuziv ta'limga jalb qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilar (fan o'qituvchilari), maxsus pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun mo'ljallangan bo'lib yakka hamda guruhli sinf mashg'ulotlarida ishlash usullari yuzasidan yondashuv yoritib berilgan.

Qo'llanma amaldagi o'quv reja va dastur, darsliklar asosida yaratilgan bo'lib, sinfda bajaradigan vazifalari, savollarga beradigan javoblari, uy vazifasini bajarishi, yangi dars mavzusiga tayyorlanishi, shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlari, tibbiy tashxislari, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga moslashtirilgan holda ishlangan.

Undan tashqari qo'llanmada umumta'lim maktabida tashkil qilingan inklyuziv ta'lim sinflaridagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va maxsus pedagoglar oddiy bilim beruvchigina bo'lib qolmasdan ta'lim jarayonini, sifatini ta'minlovchi asosiy tashkilotchi hisoblanishi har tomonlama ochib berilgan.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni Tarbiya fani yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma orqali go'zal insoniy fazilatlar, chuqur foydali bilimlar bilan uqtirishdir. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – o'quvchilarni yangi davrning mard va jasur, adolatli va sadoqatli, mehrli va oqibatli, hayoli va oriyatli, vatanparvar, ezgu maslagida qat'iyatli, mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish va ijtimoiy hayotga moslashtirishdir.

Shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kritik (tanqidiy) fikrlash (critical thinking), kreativlik (creative thinking) muloqot qilish kommunikatsiya (communication), jamoaviy ishlash ko'nikmasi kooperatsiya yoki kollaboratsiya (coordinating with others) ko'nikmalari rivojlantirish maqsad qilib olingan.

Eslatma! Inklyuziv ta'lim sinfi qabul qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalari bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi maxsus pedagog, psixologi, tibbiyot xodimi hamda ota-ona bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Shu asosida ota-onalar uyda tegishli vazifalarni bajarish, o'rgangan bilimlarini nazorat qilib borishi ko'rsatib o'tilishi maqsadga muvofiq.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sinflarida joylashtirish



1-rasm. Sinflar va laboratoriyalardagi o'quvchilar o'tirish joylarini taqsimlashda o'quvchining salomatligi holati e'tiborga olinishi

1. Evakuatsiya rejasi – bu yerda binodan xavfsiz chiqish yo'llarini ko'rsatuvchi evakuatsiya rejasi joylashgan. Bu jadval binodan favqulodda holatlarda tez va xavfsiz chiqishni ta'minlash uchun muhim.

2. Doska – odatiy sinfxonalarda mavjud bo'lgan yozuv va dars o'tish uchun mo'ljallangan doska.

3. Brayl yozuvli kompyuter – ko'rish qobiliyati past bo'lgan o'quvchilar uchun Brayl shriftli kompyuter va klaviaturalar.

4. Moslashtirilgan o'quv stollari – umumiy o'quvchilar uchun, shuningdek, jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham qulay bo'lgan maxsus stollar.

5. Nogiron aravasidagi o'quvchi uchun stol – nogironlar aravasidagi o'quvchilarga moslashtirilgan maxsus stol. Stolning balandligi va kengligi o'quvchining harakatlanishiga mos keladi.

6. Xavfsizlik tizimi (qo'ng'iroq tugmasi) – bu yerda favqulodda holatlarda qo'ng'iroqni bosish mumkin bo'lgan xavfsizlik tugmasi mavjud.

7. Eshik va kirish uchun maxsus moslamalar – eshik hududida nogironlar uchun maxsus qulay kirish, pandus va eshik ostonasini ko'rsatadi.

9. "Chiqish" belgisi – evakuatsiya yoki favqulodda holatlarda chiqish yo'lini ko'rsatuvchi yozuv.

10. Evakuatsiyaning audio-va vizual belgilari – eshitish va ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar uchun maxsus evakuatsiya belgisi.

11. Video kuzatuv kamerasi – sinfnining xavfsizligini ta'minlash uchun o'rnatilgan kamera.

12. Tutqichlar – harakatlanishda qiyinchiliklar bo'lgan o'quvchilar uchun o'rnatilgan maxsus tutqichlar.

13. Evakuatsiya va xavfsizlik uchun audio-va vizual ma'lumot taqdimotchilari evakuatsiya jarayonini osonlashtirish uchun audio va vizual ko'rsatmalar.

14. Taktill yo'l – ko'zi ojiz bolalar uchun joylashtirilgan maxsus taktill yo'llar, bu ularning sinfda xavfsiz harakatlanishlariga yordam beradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (*eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar*)ni doskaga yaqin, o'qituvchi hamda tengdoshlarini ko'rib turishi uchun qulay bo'lgan oyna tomondan hamda har qanday qatordagi birinchi va ikkinchi partada o'tirishini tavsiya qilish (*og'zaki nutq 2,4 m, shivirlash esa 0,5 - 1 m masofadan qabul qilinadi*);

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (*ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar*)ni sinfga osongina kirib chiqishi uchun o'rta qatordagi birinchi va ikkinchi partaga hamda ko'rish qobiliyati past o'quvchilarga tabiiy yoritish sharoiti ko'proq bo'lgan deraza tomondagi chekka stollardan joylar ajratilishi, shuningdek ko'zoynak bilan ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lgan o'quvchilar istagan joylariga o'tirishini tavsiya qilish;

Somatik kasalliklar (*psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar*)i mavjud bolalarni ko'pincha jismoniy va psixologik muammolarni bir vaqtda boshdan kechirishini inobatga olib sinf eshigiga yaqin qatordagi partaga hamda revmatizm kasalliklari bor, tez-tez angina va yuqori nafas yo'llarining o'tkir shamollashiga moyil o'quvchilarga derazadan uzoqroqqa o'tirish joylari ajratilishi;

Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (*alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojlanishdagi sustlik, duduqlanish*)ni o'qituvchi hamda boshqa (sog'lom) bolalarni aniq ko'rib turishini inobatga olib oyna tomondagi qatorning old qismlaridagi partalarga joylashtirish;

Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (*bolalar serebral falaji, skolioz, poliomyelit, miopatiya, osteomyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi - pakanalik*)ni maktabning birinchi qavatida joylashgan sinfda, mustaqil harakatlanishiga imkon berishni inobatga olib, o'rta qatordagi birinchi partaga joylashtirish (zarur holatlarda maxsus parta talab qilinadi) qolaversa, o'quvchilarning gavdalari buzilishini profilaktika qilish maqsadida, ularning o'sishiga mebel raqami mos kelishi, oxirgi qatorda o'tirganlar bir yilda 2 marta joylarini o'zgartirishlariga sharoit yaratish;

Aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalarni jismoniy qiyinchiliklarga duch kelishini, ammo intellektual jihatdan o'z tengdoshlari bilan bir xil ekanligini inobatga olib o'rta qatorga joylashtirish;

Aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (*o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji*)ni maxsus pedagogik, tibbiy va psixologik yondashuvlar talab qilinishini inobatga olib o'rta qatorga joylashtirish;

Intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalarni sinf eshigiga yaqin bo'lgan chetki qatorning birinchi va ikkinchi partalariga joylashtirish;

Xulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektorida buzilishi bo'lgan bolalarni eshikka yaqin bo'lgan qatorning devor tomonidan birinchi va ikkinchi partaga o'tirishini taklif qilish;

Intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (*agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq bir oyda bir martadan oshmagan vaqtda*) alohida e'tibor va yondashuv talab qilishini inobatga olib sinfdan hech kimga xalal bermasdan chiqib ketishga qulay bo'lgan eshikka yaqin o'ng tomondagi qatorlarga joylashtirish;

Diqqat yetishmasligi hamda giperaktiv bolalarda diqqatni jamlashda, topshiriqlarni yakunlashda yoki o'rnatilgan tartib qoidalarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishini inobatga olib eshikka yaqin bo'lgan qatorga joylashtirish lozim.

Mazkur tavsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **"Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"** 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli hamda "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida" nizomi hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining **"Maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini jihozlashda foydalaniladigan mebellarga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablarini (0057-23-son sanqvan) tasdiqlash to'g'risida"** 2023-yil 7-noyabrdagi 24-sonli qaroridan kelib chiqib tayyorlangan.

1-dars. Vatanim-faxrim


O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onasi bilan birgalikda yozgi ta'til davomida qanday ishlar bilan shug'ullanganligi, o'qigan kitoblarini aytib berishi lozim.

O'qituvchi barcha o'quvchilarga bu yili yanda ko'proq bilim olishini, ishonch, hurmat, o'zaro yordam, hamjihatlik, do'stlik kabi fazilatlar bilan yaqinroq tanishilishi, madaniyatimiz, boy merosimizni o'rganishimiz ta'kidlab o'tiladi.



	Barcha o'quvchilar bilan birgalikda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham Vatan haqida tushuncha berish maqsadida Akmal va Madina suhbatidan foydalaniladi. Bu orqali bolalarda vatanparvarlik, sog'inch, davlat ramzlari, poytaxt kabilar haqida o'rgatiladi.	
---	---	---



Berilgan rasmlardagi joylar O'zbekiston qaysi hududida joylashgan ekanligini o'qituvchi hamda tengdoshlari bilan birgalikda aniqlanadi.



Barcha o'quvchilarga vatanparvarlik buyuk bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur orqali tushuntiriladi.

U shoh va shoirligi bilan mashhurligi, 12 yoshida taxtga o'tirganligi, qudratli davlat tuzganligi va uch yuz yil hukm surganligi aytiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yanada tushunarli bo'lishi uchun ona yurtidan tok qalamchasi va qovun urug'ini keltirib hind tuprog'iga ektiradi. Lekin uzum va qovunning mazasi vatanidagidek shirin



bo'lmaydi. Bir kuni Andijondan olib kelinga qovunni hidlab, yig'lab yuborganligini tasvirlab beriladi.

Barcha o'quvchilar bilan birgalikda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham O'zbekiston Respublikasi 12 ta viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasidan tashkil topganligi (14 ta hududiy birlik) mamlakatimiz xaritasi orqali tushuntiriladi.



O'quvchilarning esda qolishi uchun hududlar o'zining mashhur jihatlarini bilan tushuntirib beriladi. Masalan, O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlari **UNESKO**ning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilganligi bilan aytiladi,

Rasmda berilgan xarita orqali har bir o'quvchi o'zi tug'ilgan joyni aytib o'tadi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan o'tilgan darslarni mustahkamlash maqsadida maxsus pedagog **“Maxsus yordam ko'rsatish xonalari”** bolalarning ehtiyojlariga mos keladigan jihoz va o'quv materiallaridan foydalanadi.

mashg'ulotlarning mazmuni va metodlarini tanlaydi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik, tibbiy yordam ko'rsatilishini muvofiqlashtiradi;

boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda umumiy mashg'ulotlarni, kichik guruhlarda va alohida-alohida mashg'ulotlarni olib boradi;

zarurat bo'lganda o'quvchilar bilan qo'shimcha yakka tartibda mashg'ulotlar tashkil etadi.

“Men Vatanim bilan faxrlanaman” metodikasi

Mazkur mavzu barcha bolalarga tushunarli bo'lishi uchun **“Men Vatanim bilan faxrlanaman”** metodikalaridan foydalaniladi. Ko'zlangan maqsad bolalarda Vatanga nisbatan faxr, mehr, g'urur tuyg'ularini shakllantirishdir.

Mazkur metodika davomida rasmi suhbat (3 daqiqa) tashkil qilinadi. Rasmda: O'zbekiston bayrog'i, Mustaqillik haykali, Registon maydoni kabilar tasvirlangan.

O'qituvchi quyidagi: **“Bu joylar qayerda? Nega ular bilan faxrlanamiz?”** savolini beradi. Bola esa: **“Bu O'zbekiston! u bizning Vatanimiz!”** deb javob berishi uchun yo'naltiriladi.

Har bir bola kichik yurak yoki bayroq shaklidagi kartochkaga o'z faxrini yozadi yoki rasmini chizadi.

“Men Vatanim bilan faxrlanaman, chunki u go'zal”, “Men Vatanimni sevaman, chunki bu yerda tinchlik bor” kabi gaplarni aytadi.

Bolalar tomonidan tayyorlangan yurak yoki bayroqlar devorga yopishtiriladi.

O'qituvchi **“Mana bu yuraklar – bizning faxrimiz timsoli!”**dir deb aytadi.

Ko'zlangan natija bolalarda o'z yurti bilan faxrlanish, uni qadrlash, sevish tuyg'ularini his qildirish va uni ifodalay olishini shakllantirishdir.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar otasonasi bilan birgalikda o'zi yashaydigan joy tarixi haqida kichik hikoya tuzib keladi.

2-3-dars. Maktab nima uchun kerak?

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda o'zi yashaydigan joy tarixi haqida tuzib kelgan kichik hikoyasi eshitaladi va rag'batlantiriladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limini amaliyotda rivojlantirish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

ta'lim jarayonida barcha bilan birdek munosabatda bo'lish;
hamma bilan bir xil hurmat va e'tibor qarata olish;
yordamchi qurilmalarni qanday foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
o'quvchilar ichki dunyosini tushunadigan tajribaga ega bo'lishi kerak.
O'quvchilarga maktab nima uchun kerakligini tushuntirish usullari:
kichik hikoyalar va misollar orqali tushuntirish;
rasm va videolar yordamida maktabning foydali jihatlarini ko'rsatib berish;
maktabdagi barcha faoliyatlar haqida suhbatlashish va ularning qiziqishlarini uyg'otish;
o'yin va rolli mashg'ulotlar orqali egallanishi lozim bo'lgan tushunchalarni chuqurlashtirish.

	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga Akmal va Madina suhbatida maktab o'qish, yozish, hisoblashdan tashqari o'rganish zarur bo'lgan qiziqarli narsalar juda ham ko'pligi tushuntiriladi. Bu uchun maktab va ustozlar yordam berishi ta'kidlanadi. Akmal matematika, koinotga hamda yulduzlarga qiziqishini aytadi. Unga Madina astronomiya fanini tavsiya qiladi va shu orada o'zi kompyuter savodxonligi darslariga qiziqishini aytib o'tadi.	
---	--	---

Akmal va Madina suhbatidan keyin har bir boladan qiziqishlari so'raladi. Ularning alohida ta'lim ehtiyojlari inobatga olinib darslikning 7-sahifasidagi rasm asosida javob berishi tavsiya qilinadi.



Atrofdagi olamni kuzatish natijasida yangi fanlar paydo bo'lishi, kuzatib ilm-fan bilan shug'ullangan insonlar olim deb atalishi tushuntiriladi.

Buni esa amaliyot bilan bog'lab (Astronomlar yulduzlarni kuzatishi, geografiya biz yashayotgan sayyorani o'rganishi, biologlar tirik tabiatni, tarixchi olimlar o'tmish va hozirgi hayotni, fiziklar tabiat qonunlarini, kimyogar moddalar xususiyatlarini o'rganadi) tushuntiradi.

Yanada tushunarli bo'lishi uchun rasmdagi kashfiyotlar qaysi fanga asos ekanligi aniqlanadi.



Barcha o'quvchilar odamlar, buyumlar, tabiat hodisalari tushunishi, videolarni tushuntirish va oldindan bilish, muammolarni hal qilish, to'g'ri noto'g'ridan, yaxshini yomondan ajratishi uchun bilim olish zarurligini tushuntirish kerak.

Yangi bilim va g'oyalar bilangina hayotimizga kirib kelgan telefon, samolyot, internet, dori-darmonlar yaratilganligi misol tariqasida aytib o'tiladi.

Olimlar ish faoliyatini alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushuntirish maqsadida rasmdagi asboblardan qaysilari olimlarga tadqiqot uchun kerakligi aniqlanadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi, o'rtoqlar bilan birgalikda biror yangi narsa o'ylab topishga harakat qiladi, buning uchun nimalar kerak bo'lganligi aytiladi.




Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi hamda o'rtoqlar bilan birgalikda yangi yasagan narsasi haqida aytadi. Buning uchun nimalar kerak bo'lganligi ko'rsatib beradi.

Barcha o'quvchilarga dars davomida bilim berish bilan bir qatorda faxr hamda g'urur tushunchasini shakllantirish maqsadida **Mirzo Ulug'bek** bobomiz bilan tanishtiriladi. Butun dunyoda tutgan o'rni haqida ma'lumot beriladi.

Ulug'bek rasadxonasi Samarqand shahrida joylashganligi, mashhur bo'lish uchun Mirzo Ulug'bekka qaysi fanlar yordam berganligi aytiladi, ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan o'rni aniq misollar bilan tushuntiriladi.

Zamonaviy olim qanday bo'lishi haqida esa Ahmadjon Abdujabborovning (fizika-matematika fanlari doktori, professor) fikrlari maktab darsliklaridan o'qib beriladi.



Olimlar hamda rasm asosida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar qadimgi va bugungi kundagi olimlarning o'xshash va farqli tomonlarini aytib berishi kerak. Zarur bo'lsa aniq misollar va ko'rgazmalari qurollardan foydalanish imkoniyati beriladi.

Undan keyin barcha o'quvchilar bilan birgalikda:

Endi men ... ekanini bilib oldim.

Endi men ... bilaman. nuqtalar o'rni to'ldiriladi

“Maktab - bilim uyi” metodikasi

“Maktab nima uchun kerak?” darsi tushunarli bo'lishi uchun **“Maktab - bilim uyi”** metodikasidan foydalaniladi. Ko'zlangan asosiy maqsad bolalarda maktabning ahamiyati, u yerda nimalar o'rganilishi va maktabga mehr bilan qarash tuyg'usini shakllantirishdir.

Ushbu metodika suhbat va savol-javob (3 daqiqa) bilan tashkil qilinadi. Savol beriladi: **“Nega har kuni maktabga boramiz?”**.

Bolalar javoblarni bola o'z tajribasiga tayangan holda aytadi: **“Yozishni o'rganaman”, “Do'stlar bilan uchrashaman”, “Rasm chizaman”, “O'qituvchim meni yaxshi ko'radi”**.

Bolalarga rasmlarni topish aytiladi. Rasm: maktab binosi, sinf xonasi, o'qituvchi, doska, kitoblar va hokazolar.

O'qituvchi so'raydi: **“Maktabda nimalarni ko'ryapsan?”**;

bola har bir narsani nomlaydi va nima uchun kerakligini aytadi.

Undan keyin bola **“Maktabda men...”** deb boshlangan jumlasini to'ldiradi. **“Maktabda men o'qiyman”, “Maktabda men do'stlar orttiramani”, “Maktabda men orzu qilaman”** va boshqalar bo'lishi mumkin.

Natijada bola maktabning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishdagi o'rnini tushunadi, unga bo'lgan ijobiy munosabati yanada shakllanadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda kitoblar va internetdan foydalanib, bilim haqida maqollar topiladi va daftariga yozib kelinadi.

4-dars. O'qituvchi va o'quvchilar

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga o'qituvchi va o'quvchilar tushunchasini shakllantirishda dastlab:

o'qituvchi tushunchasini shakllantiriladi.

Bunda:

o'qituvchi kim ekanligi va uning vazifalari haqida tushuncha berish;

o'qituvchi - bilim beradigan, yordam beradigan va o'rgatadigan inson ekanligi;

o'qituvchilar dars o'tishi, savollarga javob berishi, bolalarga qiyin topshiriqlarni bajarishda yordam berishi;

bolalar tushunishi uchun o'qituvchini ota-ona yoki katta akasi-singlisi kabi yordam beruvchi inson sifatida ko'rsatishi mumkin.

O'quvchi tushunchasini shakllantirishda quyidagilarga urg'u beriladi:

O'quvchi - maktabda o'qiyotgan bola ekanligi;

o'quvchi o'qituvchi tomonidan aytilgan vazifalarni bajarishi, yangi narsalarni o'rganishi va tengdosh do'stlari bilan birga o'qishi;

Maktabdagi barcha bolalar bir-birlariga "o'quvchilar" deyilishi tushuntiriladi.


O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda kitoblar va internetdan foydalanib, bilim haqida maqollar topib, daftariga yozib kelganligi tekshiriladi.

	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga Akmal va Madina suhbatlari orqali barchaga o'qish-yozishni, tabiatni sevishni, kattalarga hurmat qilishni ustoz o'rgatishi, ularning kasb bayrami 1-oktabr kuni keng nishonlanishi aytiladi.	
---	--	---



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga bolalarga Munavvar qori Abdurashidxonovning **“Iskandar va Arastu”** hikoyasi orqali ustozni otadan ham ortiq hurmat qilish tushuntiriladi. Nima uchun degan savolga: **“Ota farzandini go'yoki osmondan yerga tushiradi, dunyoga kelishiga sababchi bo'ladi, ustoz esa shogirdini yerdan osmonga ko'taradi, muvaffaqiyatga erishishiga sababchi bo'ladi”** deb tushuntiradi.



Berilgan ma'lumotlar tushunarli bo'lishi uchun darslikning 14-sahifasida berilgan gaplar bir-biriga to'g'ri moslashtiriladi.

Ustoz bilimli bo'lsa,

o'quvchilarining
hurmatini qozonadi.

Yaxshi muallim

uchishga esa qanot.

O'qishga toqat kerak,

shogird ilimli bo'ladi.



O'zbek tilining rivoji, Toshkentdagi yangi maktablarni tashkil qilgan, geografiya, kimyo, fizika fanlarini o'qitishni yo'lga qo'ygan, bolalarni ta'lim olishi uchun xayriya mablag'lari tizimini yo'lga qo'ygan ibratli ustoz **Abdulla Avloniy** bilan tanishtiriladi. O'qituvchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga Abdulla Avloniy doim xotirasida qolishi uchun rasmi bilan bog'lab tushuntiradi.

O'qituvchi tushuntirgan ma'lumotlarini o'quvchilar qay darajada egallaganligini bilish maqsadida bilim olish uchun qaysi fazilatlar yordam berishini so'raydi.



Undan tashqari nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib gaplarni to'ldirish vazifasi qo'yiladi.

Men ... o'rganishni xohlayman.

Yaxshi o'qish uchun ... kerak.

“Kim nima qiladi?” metodikasi

Dars mazmuni tushunarli bo'lishi uchun **“Kim nima qiladi?”** metodikasi o'tkaziladi.

Ko'zlangan asosiy maqsad bolalarga **“O'qituvchi”** va **“O'quvchi”** tushunchalarini ularning roli va vazifalari orqali tushuntirishdir.

O'tkazish tartibi: Tayyorlov bosqichida sinf xonasida ikkita belgili rasm (yoki piktogramma)dan foydalaniladi:

biri o'qituvchi (*doska oldida turgan, tushuntirayotgan*);

ikkinchisi o'quvchi (*kitob o'qiyotgan yoki qo'l ko'targan bola*) jarayonni ifodalayotgan bo'lsin.

O'qituvchi: **“Bu - o'qituvchi, o'qituvchi nima qiladi?, u o'rgatadi, tushuntiradi”** deb aytadi.

Bu - o'quvchi, o'quvchi nima qiladi?, u tinglaydi, savol beradi, o'rganadi va hokazo.

Bolalardan biri o'qituvchi bo'lib, doska oldida turadi. Qolganlar o'quvchi bo'ladi va ular savol beradi yoki tinglaydi. So'ngra rollar almashtiriladi.

Mazkur jarayon piktogramma bilan bog'lanadi. Har bir bola rasmni ko'rsatib: **“Bu kim?”** deb berilgan savolga javob beradi: **“O'qituvchi”** yoki **“O'quvchi”** deb aytadi.

Rasmlar aralash beriladi. Bola to'g'ri nomini aytadi yoki rasm ostiga mos so'zni yopishtiradi.

Metodika natijasida vizual (ko'rish) va kinestetik (harakat orqali) o'rganish uyg'unlashadi. Shu orqali bolalarning diqqati ushlab turiladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi va sinfdoshlari bilan birgalikda O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlab tabriknoma tayyorlashi kerak.

5-6-dars. Maktabga yo'l

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalari bilan birgalikda O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlab yasab kelgan tabriknoma ko'riladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga maktabga borish yo'lini tushuntirishda aniqlik, vizual vositalar va amaliy mashg'ulotlar muhim bo'lib bu bolalar uchun yo'lni tushunish va yodda saqlash qiyin bo'lishini inobatga olib jarayonni bosqichma-bosqich, qat'iy va oson usulda o'rgatilishini talab qiladi.

bosqichma-bosqich tushuntirish (uydan chiqish, yo'l bo'ylab harakat qilish, belgilarni tushunish, maktab binosiga kirish);

vizual materiallardan foydalanish (*rasmlar va xaritalar, fotosuratlar, videolar, amaliy mashg'ulotlar, birgalikda yo'lni bosib o'tish, yo'l belgilari bilan tanishtirish*);

oddiy va tushunarli til ishlatish;

qoidalarga urg'u berish;

yodlash va mustahkamlash;

texnologiyalardan foydalanish;

doimiy kuzatish va yordam berish.



Akmal va Madina suhbatlari orqali yo'l-transport qoidalariga rioya qilish zarurligi tushuntiriladi.

Yo'l-transport hodisasi yuzaga kelishiga haydovchilar hamda yo'lovchilar sababchi bo'lishi tanishtirib beriladi.




Hozirgi zamonda insoniyatga yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanish hamda shukronalik hissini shakllantirish maqsadida qadimda foydalanilgan dastlabki transport vositalari ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham to'liq tushunishi uchun rasmda berilgan har bir predmetning nomi alohida alohida aytiladi.



Darslikning 17-sahifasida berilgan rasmlarni o'quvchilardan qayerda ko'rganligi so'raladi va asosida ularning tushunchasi aniqlanib, svetoforlar tushuntiriladi.



Svetofoir ishoralari haqida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lishi uchun darsdan tashqari ko'chada birgalikda harakatlanish orqali ko'rsatib tushuntirish yoki svetofoir har bir ishorasi rangini ko'rsatib qanday harakat qilish zarurligi amaliy ko'rsatib berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yo'llarda harakatlanishga yordam beradigan yo'l harakati belgilarini tushuntirish uchun darslikning 18-sahifasida berilgan rasmlarni har bir alohida alohida qilib qog'ozga chiqarib olinadi. Har bir belgi ko'rsatilib alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar boshqa (sog'lom) tengdoshlari bilan birgalikda amaliy harakatlar orqali bajartirib tushuntiriladi (1-usul).

Yanada tushunarli bo'lishi uchun rasmda ko'rsatilgan belgilarni yozuvdagi nomlari ham qog'ozga alohida qilib chiqarilib nomi bir biriga moslab qo'yib chiqiladi (2-usul).

Yo'l harakati belgilariga qanday amal qilish zarurligini barcha o'quvchilarga yetkazish uchun quyidagi rasmdan foydalaniladi.

O'quvchilar Akmal yoki Madinadan qaysi bir yo'l belgisiga amal qilmaganligi aniqlanadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar

ota-onasi bilan
birgalikda rasmda
qanday xatolar
mavjudligini va bunday
vaziyat qanday
oqibatlarga olib kelishi
mumkinligi aniqlab
kelinadi.



Avtohalokat hodisasi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lishi uchun bunday holat yuzaga kelgan rasmlar ko'rsatiladi.

Undan keyin darslikda berilgan mavzuga bog'lab tushuntiriladi.

Dilnozani maktabga olib kelish uchun onasi kuniga uni mashinada olib kelib qo'yishi va xavfsizlikni ta'minlagan holda o'zi ham xavfsizlik kamarini taqadi. Dilnozani esa maxsus o'rindiqqa o'tirg'izib xavfsizlik kamarini taqib qo'yadi. Bu Dilnozaga yoqmasligini, bir kuni maktabdan kelishda avtohalokat yuzaga kelib boshi yoriladi, qo'li sinadi.



Shundan keyin Dilnoza mashinaga chiqsa xavfsizlik kamarini taqadigan bo'lganligi aytib beriladi.

Ma'lumot uchun birinchi xavfsizlik kamari samolyotlarga o'rnatilganligi hatto samolyotlarda ham undan foydalanish lozimligi aytib o'tiladi.

Xavfsizlik kamardan foydalanish og'ir jarohat olish ehtimolini bir necha marta kamaytiradi.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatini oshirish maqsadida guruhlarda "Yo'llardagi xavfsizlik" plakatlari chiziladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham jarayonni ichida bo'lishi uchun qaysi ranglarda foydalanilayotganligi hamda xavfsizlik qoidalari aytib ishlanadi.

"Qadam-baqadam maktab sari" metodikasi

Dars mazmuni tushunarli bo'lishi uchun **“Qadam-baqadam maktab sari”** metodikasidan foydalaniladi.

Ko'zlangan asosiy maqsad bolalarga **“Maktabga borish”** jarayonini ketma-ketlikda tushuntirish, uyqudan uyg'onish, tayyorgarlik, maktabga ketish, sinfga kirish kabilarni o'rgatishdir.

O'qituvchi maktab rasmi yoki piktogrammasini ko'rsatadi va quyidagi savollarni beradi:

“Bu nima?” - “Maktab”. “Biz qayerga boramiz?” - “Maktabga”.

Uyqudan uyg'onish, yuzni yuvish, nonushta qilish, sumkani olish, maktabga qarab yurish, sinfga kirish (*Har bir bosqichga sodda so'zlar va rasmlar biriktiriladi*) tasvirlangan rasmlar ketma-ketlikda joylashtiriladi (5 daqiqa).

Bolalar onaning, bolaning, o'qituvchining rolini o'ynaydi.

“Uyg'onamiz – yuvinamiz – nonushta qilamiz – sumkani olamiz – maktabga boramiz”.

Metodika jismoniy harakatlar bilan mustahkamlanadi (3 daqiqa). **“Turgin!” – bola turadi, “Sumkani ol!” – ko'rsatadi, “Yur!” – yurishni taqlid qiladi, “Sinfga kir!” – eshikdan kirishni ko'rsatadi va hokazo.**



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda **“Maktabga boradigan yo'lda mening xavfsizlik qoidalarim”** mavzusida qo'llanma tuziladi.

7-dars. Jamoat transportida

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda **“Maktabga boradigan yo'lda mening xavfsizlik qoidalarim”** mavzusida tuzilgan qo'llanma ko'riladi va rag'batlantiriladi.

Dastlab jamoat transportlari haqida umumiy tushuncha berilib qaysi transport vositalari kirishi aytib o'tiladi. Bu jarayonda har bir transport vositasi rasmi ko'rsatilib keyin nomini aytilish tavsiya qilinadi.

Jamoat transportlarida harakatlanish qoidalarini esa mavzu qahramonlari Sarvar bilan Shuhrat misolida tushuntiriladi. Avtobusga chiqqanda o'zidan kattalar o'rnidan turib joy berish zarurligi, baland ovozda gapirmaslik, telefon o'ynamaslik ta'kidlab o'tiladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga jamoat transportida harakatlanish qoidalarini o'rgatishda ularning mustaqil qatnashishiga, xavfsiz harakatlanishiga va ijtimoiylashuviga yordam berishini tushuntirish lozim.

Jamoat transporti tushunchasi bilan tanishtirish (avtobus, tramvay, metro, poyezdni rasm va videolar yordamida ko'rsatish, tushunarli til ishlatish, jamoat transportiga chiqish qoidalarini, bekatda kutish, transportga chiqish, o'rindiqqa o'tirish yoki ushlanib turish, xavfsizlik qoidalarini tushuntirish);

transportdan tushish qoidalarini (oldindan tayyorlanish, tartib bilan tushish, yo'lni kesib o'tish, amaliy mashg'ulotlar);

vizual va eslatma materiallar tayyorlash (rasmlar, belgilar, bosqichlar);

rol o'ynash o'yinlari (uy sharoitida mashq qilish, tushunarli vazifalari bilan tanishtirish);

xavfsizlik qoidalarini o'rgatish (tinch yurish, narsalarni yo'qotmaslik, notanish odamlar bilan ehtiyot bo'lish);

savollar va takrorlash;

texnologiyalar va qo'shimcha yordam (smartfon ilovalari, eslatma kartalari).



Hikoya o'qib berilganidan keyin nima uchun Sarvar bilan Shuhrat kerakli bekatdan o'tib ketganligini tushunib alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar aytib berishi zarur.


Berilgan rasm asosida tushuntirish yanada samarali bo'ladi.

Darslikning 23-sahifasidagi rasm asosida berilgan jumlar orasidan jamoat transportlarida yo'lovchilar o'zini qanday tutishi kerakligi aniqlanadi.

Har bir jumla ma'nosi ochib beriladi. Nima sababdan to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tushuntiriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga jamoat transportiga chiqqan vaqti qaysi odatlarga amal qilish zarurligi so'rab, tushunganligi tekshiriladi.



Darslikning 24-sahifasida berilgan rasm **“Metro”** bo'lib tezyurar temiryo'l transporti ekanligi, asosan yer ostida temir izlarda harakatlanishi, hozirgi kunda texnologiyalarning rivojlanishi natijasida metroning yerusti yo'llari ham ishga tushirilganligi aytiladi.



Metroda foydalanish qoidalarida berilgan yo'lovchi majburiyatlari hamda o'rnatilgan taqiqlar bittalab tushuntiriladi. Undan keyin yanada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lishi uchun to'g'ri yoki noto'g'ri belgisi qo'yiladi.

Imkoni bo'lsa metrodan foydalanish qoidalari aks ettirilgan rasmlardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga atrof-muhitni muhofaza qilishga o'z hissasini qo'shishi mumkinligini tushuntirish maqsadida velosiped haqida suhbatlashiladi.

Velosiped:

atrof-muhitga zararli chiqindilar ajratmaydi;
jismoniy harakat tufayli mushaklaringiz va tanangiz chiniqadi;

kerakli manzilga toza havoda yetib olishingizga yordam beradi.



“Avtobusga chiqamiz” metodikasi

Mazkur dars bolalarga tushunarli bo'lishi uchun **“Avtobusga chiqamiz”**  metodikasidan foydalaniladi.

Ko'zlangan maqsad bolaga jamoat transportidan foydalanish jarayoni va undagi odob-qoidalarini bosqichma-bosqich tushuntirishdir.

Rasm yoki o'yinchoq avtobus ko'rsatiladi va quyidagi savollar beriladi.

“Bu nima?” → “Avtobus”;

“Avtobus nima qiladi?” → “Odamlarni olib boradi”.

Avtobus bekatiga borish, navbatda turish, avtobusga chiqish, o'tirish yoki ushlanish, tushish, yo'l davomida jim yurish kabi so'zlar ifodalaydigan rasmlar qo'yiladi. Bolalar har bir rasm ostiga mazmunini ifodalaydigan so'zlarni joylashtiradi.

“Kutamiz” – “Chiqamiz” – “O'tiramiz” – “Tushamiz”

Jarayon yanada tushunarli bo'lishi uchun **“Keling, avtobusga chiqamiz”** (5 daqiqa) roli o'yini tashkil qilinadi. Stol yoki stuldan **“Avtobus”** yasaladi.

Bolalar navbatda turib chiqadi, **“Chipta”** so'raydi va undan keyin avtobusga o'tirishadi.

Harakatlar davomida o'qituvchi: **“Navbatda tur!”**, **“Ichkariga kir!”**, **“O'tir!”**, **“Jim yur!”** deb aytadi.

Jarayon orasida odob-axloq qoidalari ham aytib o'tiladi (2 daqiqa). **“Avtobusda qichqirish mumkinmi?” → “Yo'q”, “Katta odamlar kelsa nima qilamiz?” → “Joy beramiz”** va hokazo.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda zamonaviy yoki qadimiy transport turlari haqida qisqa hikoya yozib kelinadi.

8-dars. Takrorlash

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda zamonaviy yoki qadimiy transport turlari haqida yozib kelingan qisqa hikoya tinglanadi.

Takrorlash yuzasidan berilgan test savollarining har bir o'qilib mazmuni tushuntirib beriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lishi uchun qaysi darsda o'tilgan mavzudan ekanligi eslatiladi. Topilgan to'g'ri javobdan keyin savol va uning javobi mazmuni yana bir bor tushuntirib o'tiladi.

Sindagi barcha o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib **“O'zbekistonning davlat ramzlari”**, **“Vatanimiz – O'zbekiston”**, **“Yo'lda transportda xavfsizlik,”** **“Bilim olishga nima yordam beradi?”** alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham kichik kichik amaliy vazifalar berib taqdimotlar tayyorlanadi.

O'qituvchilar darslikda berilgan **“Ustoz rag'batlari”** hikoyasidagi kabi har bir o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlab boradi. Aniqlangan ma'lumotlar bilan ota-onasini ham xabardor qilib bolalarga yondashishi kerak bo'ladi. Shunda ularning kelajakda qanday kasb egasi bo'lishini ko'radi. Hikoya qahramoni a'lochi o'quvchi gapi uchuvchi bo'lib ustozini Makkaga olib boradi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan intellektida muammoli bolalar bilan ishlashda “Tushunish” usulidan foydalanish, bunda: bola berilayotgan savolni ham uning javobini ham tushunishi, zarur bo'lsa amaliyot bilan bog'lab ko'rsatish zaruriyatini pedagoglar o'z oldiga qo'yadi. Asosan aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarni bosh miyasida organik jarohatlanish bo'lganligi sababli iloji boricha berilgan savollarni tabiiy predmetlar bilan ko'rsatib berish maqsadga muvofiqdir.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda kelajakda qanday ishlarni maqsad qilganligini yozib keladi.

9-10-dars. Men va mening sinfdosh do'stlarim

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda kelajakda qanday ishlarni maqsad qilganligi yuzasidan yozib kelgan ma'lumotlari tinglanadi.

Barcha uchun uy qanchalik muhim bo'lsa maktab ham ikkinchi uy ekanligi, u yerda o'qish, bilim olish, yangi do'stlar orttirish aytib o'tilishi zarur.

Undan tashqari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari ham bilishi uchun maktabda fan va sport to'garaklari ham mavjudligi aytib o'tilishi kerak.

Berilgan rasm asosida bolalarga bo'sh vaqtlarini samarali tashkil qilish, kitobxonlikni targ'ib qilish hamda sevgan mashg'ulot bilan shug'ullanish yuzasidan tavsiyalar berilishi maqsadga muvofiq.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga Men va mening sinfdosh do'stlarim tushunchasini o'rgatishning maqsadi bolalarning o'zini tanib borishiga, ijtimoiylashuviga va sinfda o'z o'rnini tushunishiga yordam berishi tushuntiriladi.

“Men” tushunchasini shakllantirish;
rasmlar orqali tushuntirish;
o'ziga xos belgilardan foydalanish;
“Mening sinfdosh do'stlarim” tushunchasini shakllantirish;

Vizual ko'rsatmalar. Jamoaviy o'yinlar, rasmlar orqali tushuncha berish;

“Men va sinfdoshlarim” farqini tushuntirishda o'xshashlik va farqlilikka ahamiyat berish;

jamoaviy faoliyatlar (jamoaviy o'yinlar hamda qo'shiq va she'rlardan foydalanish)

amaliy mashg'ulotlar (do'st topish va nomlash, yig'ma rasm yoki qo'l ishlari, rol o'ynash kabilardan foydalanish);
tushunchalarni mustahkamlash;
ijobiy rag'batlantirish.



Chivin, pashsha va asalari masali orqali bolalarga do'st tanlayotganda doim uning kim ekanligiga e'tibor berish zarurligi tushuntirib o'tilishi kerak.

Pashsha chivinni axlat uyumi tomonga boshlasa, asalari bo'lsa rang-barang gullar bilan ochilgan gulzor borligini aytganligini misol tariqasida tushuntiradi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni sinfdagi tengdoshlari bilan do'stlashib olishi, suhbatlashishi, ijtimoiylashishi uchun jurnalist sifatida intervyu tashkil qilinadi.

Savol-javob oddiy, kundalik foydalaniladigan so'zlardan iborat bo'lishiga ahamiyat bering.

“Yoshingiz nechada?, sevimli mashg'ulotingiz nima?, qaysi taomni yoqtirasan?, qaysi fanlarga qiziqasan?, kelajakda kim bo'lmoqchisan?” kabi savollar beriladi.

Shu kabi savol-javoblar orqali bolalarni qaysi kasb-hunarga moyilligi kuchli ekanligi ham aniqlanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni turli vaziyatlarda reaksiyasini ko'rish maqsadida ularni fikrlari tinglanadi.

1-vaziyat. Sinfdosh do'stingiz Said kasal bo'lib, bir hafta maktabga kelmadi.

2-vaziyat. Munisa bilan Gulbahor tortishib qoldi. Gulbahor xafa bo'lib, tinchlanib olish uchun sinfdan chiqib ketdi.

3-vaziyat. O'rtog'ingiz Ilhom tanaffusga yo'lakdagi deraza oynasini sindirib qo'ydi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda gul rasmini chizish va gul markaziga o'z ismini qo'yib gulbandlariga esa do'stlarini ismini yozib keladi. Shu orqali ular bilan nima uchun do'stlashganligi aniqlanadi.

Barcha o'quvchilar orasidan mustahkam do'stlik aloqalarini yo'lga qo'yish maqsadida **"Do'stlikning boshlanishi"** hikoyasi tushuntirib beriladi.

Hikoyadagi jarayon ayni shu sinfda ham kuzatilishi mumkinligi aytib o'tiladi. Hikoya alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham aniq tushunarli bo'lishi uchun rasmdan foydalaniladi. Hikoya qahramoni bolaligida anchadan beri qidirib yurgan kitobini kutubxonadan topib, olib kelish uchun ketayotganda bekorch bolalar uni masxara qilib, itarib yuborganligini aytadi.

Bola yiqilib, kitoblari sochilib, ko'zoynagi singanligi aytib o'tiladi. Shu vaqt bir bola kelib uni turishi yordam berganligini, uyga birgalikda kelganligini, u bilan tanishib olganligi ta'kidlanadi. Hozir hikoya qahramoni mashhur yozuvchi bo'lib ketgan. U doim yozuvchi bo'lishida do'stining hissi katta ekanligini aytib beradi.



Hikoya qanchalik o'quvchilarga tushunarli bo'lganligini aniqlash maqsadida ularning hayotida ham shu kabi vaziyatlar bo'lganligi so'rab ko'riladi.

Do'stlik insonlarni bir-biriga bog'lab turadigan o'zaro ishonch hissidir.

**Daraxt ildizi bilan kuchli, odam — do'sti bilan.
Do'st boshga kulfat tushganda bilinadi.**

Shu kabi maqollar bolalarga tushunarli bo'lishi tabiiy resurslarga bog'lab amaliy misollar bilan tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Har bir o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qobiliyatlari, qiziqishlari bo'ladi. O'qituvchilar esa aniqlangan qiziqish va qobiliyatdan kelib chiqib bolalarga yondashishi talab qilinadi.

Bu holat darslikning 32-sahifasida berilgan hikoya asosida mustahkamlanadi.

Sarvar ismli bola biroz dangasaligi uchun tortib tengdoshlaridan o'zini tortadi ammo juda ham tez yuguradi. Azizaning taklifiga binoan u 2-sinflar o'rtasida tashkil qilingan musobaqada 1-o'rinni egallaydi. Shu orqali sinfda o'z o'rnini borligini biladi va dangasalik qilmasdan faqat a'lo baholarga o'qishga ahd qiladi.

Shu kabi holatda sinfda do'stlarining sonini oshishiga xizmat qilishiga sabab bo'lishi tushuntirib o'qilishi maqsadga muvofiq.



O'quvchilarga mustahkam do'stlik aloqalari tushuntirish davom etiladi.

Bu safar Texnologiya darsidagi jarayondan foydalaniladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni jarayonni ichiga olib kirish maqsadida maktabda darsga kirish nimani ovozi asosida aniqlanishi so'raladi. Uning javobidan keyin mavzuni tushuntirishga o'tiladi. Texnologiya darsligiga kirish bo'lganda Zuhra qarasa Iroda xafa bo'lib turganligini ko'radi. Uni qaychisi va rangli qog'ozlari qolib ketganligini aytadi. Shunda Zuhra unga o'zinikini ishlatib turishi mumkinligini aytib, tinchlantiradi. Iroda xursand bo'lib dugonasiga rahmat aytadi. O'tilgan mavzularni ham takrorlab ketish maqsadida qaysi hikoya qahramoni sinfdoshiga rahmat aytilmaganligi so'rab o'tiladi.

Barcha o'quvchilardan Zuhra va Irodaniki kabi vaziyatlar yuzaga kelganligi so'raladi.



Dars jarayoni barcha o'quvchilarga bevosita sinfdagi jarayon bilan bog'lash maqsadida Jamshid bilan bog'liq hikoya tushuntirib beriladi.

Jamshid shaxmatni yaxshi o'ynaydi, ko'p kitob o'qiydi. Juda ham yaxshi suhbatdosh, lekin uni bolaligidan ko'rish bilan bog'liq muammolar bor, shuni uchun ko'zoynak taqadi. Qolgan bolalar Jamshidni ko'zoynak taqqanligi uchun mazax qilishadi. Bu holat Umidga yoqmaydi va doim do'stini himoya qiladi.

Ushbu hikoya orqali yana bir bor boshqa (sog'lom) bolalarga sinfdagi alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarni doim qo'llab-quvvatlash, do'st bo'lish aytib o'tiladi.



Ushbu hikoyadan keyin alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalardan sinfdagi eng yaqin do'stlari kim ekanligi va nima uchun ularni eng yaqin do'stlari sifatida ko'rishini aytadi.

“Bu men – bu mening do'stim” metodikasi

Ushbu dars mazmuni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lishi uchun **“Bu men – bu mening do'stim”**  metodikasidan foydalaniladi. Ko'zlangan asosiy maqsad bolalarga o'zini, sinfdoshlarini tanishtirish, do'stlik, hurmat va birgalikda harakat qilish tushunchalarini shakllantirishdir.

Har bir bola o'zini rasm orqali tanishtiradi. **“Isming kim?”** va **“Sen sinfdan nimalar qilasan?”** savolini tengdoshiga beradi. Rasm yoniga ism yoziladi va **“Men – Anvarman”** deb javob beradi.

Metodika qiziqarli bo'lishi uchun **“Bu mening do'stim”** o'yini (5 daqiqa) o'tkaziladi. O'qituvchi aytadi: **“O'zingni va yoningdagi tengdoshingning ismini ayt”**. Bola: **“Men – Omina. Bu – Jasur, u mening do'stim”** deb gapiradi.

Har bir juftlik shu tartibda bir-birini tanishtiradi.

Shuningdek, qo'l berish va salomlashish (3 daqiqa) odobi ham aytib o'tiladi. **“Salom, do'stim!”** deb, qo'l berib ko'z bilan qoraladi.

Har bir bolaga do'sti bilan bir varaqda **“Biz sinfdoshmiz”** mavzusida rasm chizish tavsiya qilinadi.

Rasm ostiga o'qituvchilar: **“Men va mening do'stim – birga o'ynaymiz”** deb yozib qo'yishi tavsiya qilinadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda darslikning 34-sahifasidagi rasmdan foydalanib **“Bizning ahil sinfimiz”** mavzusida kollaj yoki taqdimot tayyorlab kelinadi.



11-dars. Bir-birimizni tushunishni o'rganamiz

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda darslikning 34-sahifasidagi rasmdan foydalanib "Bizning ahil sinfimiz" mavzusida tayyorlab kelgan kollaj yoki taqdimot ko'rib chiqiladi.

Mazkur mavzu asosida sinfda birgalikda o'qiyotgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni jismoniy hamda psixologik muammolaridan qat'iy nazar ularni tushunish imkoniyatlari ochib beriladi.

Mazkur mavzu aynan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga urg'u bermasdan barcha bolalarga birdek tushuntirish talab etiladi.

Unda barcha har xil odam ekanligi, hammani o'z fe'l-atvorlari borligi, shuningdek kayfiyatlar ham har xil bo'lishi tabiiy holatdir. Undan tashqari istak va qiziqishlar ham turlicha bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqib ham hamma o'zicha yo'l tutadi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni bir-biriga tushunishni o'rgatish ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga, hamkorlik ko'nikmalarining shakllanishiga yordam berishi, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash muhitida rivojlanishlarini ta'minlaydi. Bunda:

- bir-birining farqlarini tushuntirish;
- oddiy tushuncha berish;
- farqlarni tushuntirish uchun rasmlar va misollardan foydalanish;
- rol o'ynash orqali tushuntirish;
- o'yin orqali aytish;
- empatiya va yordam ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- amaliy mashg'ulotlardan (yordam berish vazifalari, e'tibor o'yinlar, birgalikda o'yin va faoliyat tashkil etish, birgalikda o'yinlardan foydalanish);
- hikoyalar va vizual materiallar orqali tushuncha berish;
- ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish;
- o'zaro tushunishni mustahkamlash uchun suhbatlar;
- do'stlik va bir-birini tushunish tushunchasini mustahkamlash.



Rasmlardagi har xil yuz ifodalari bilan tanishtirilgandan keyin, bolalar hozir qanday kayfiyatda ekanligini, o'rtog'ini kayfiyati qanday ekanligini aytib berishi kerak bo'ladi.

Do'stlik har qanday janjal, arzdan ustun ekanligini darslikning 36-sahifasidagi hikoya asosida tushuntiriladi.

Aziz sinfdoshi bilan urishib qolgan vaqtida Madina unga doskani artishga yordam so'raganda qo'rslik qilib javob beradi. Ustozi buni eshitib Azizga jahldan tushish



uchun borib Madinadan kechirim so'rashi, undan keyin urishgan o'rtog'i bilan gaplashib olishni tavsiya qiladi.

Hikoya tushuntirib berilgandan keyin nuqtalab o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib gaplar to'ldiriladi.

Gaplar to'ldirilgandan keyin hosil bo'lgan gap ma'nosi tushuntirib beriladi.

Endi men insonning kayfiyatini ... bilib oldim. O'rtog'imning kayfiyati yomon bo'lsa, men Men ... o'rganmoqchiman.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni guruhlarda hamkorlikda ishlash qobiliyatini oshirish hamda ijtimoiylashuvini ta'minlash maqsadida berilgan so'zlar yordamida savollarga javob beriladi.

1-vaziyat. Bir odamning kayfiyati yaxshi yoki yomonligini nimaga qarab bilsa bo'ladi?

Foydalanish uchun so'zlar: qovog'ini soladi, deysinib turadi, kulib turadi, noliydi, savolga javob bermaydi, hazillashadi, qo'pollik qiladi,



suhbatga aralashadi, teskari qarab oladi, suhbatdoshini tinglaydi, yig'laydi, savollar beradi, xo'rsinadi, qiziqish bildiradi, baqiradi.



2-vaziyat. Kayfiyati yaxshi odam nimalarni his qiladi? Kayfiyati yomon bo'lganda-chi?

Foydalanish uchun so'zlar: qayg'u, sog'inch, quvonch, xafagarchilik, charchoq, g'ayrat-shijoat, qiziqish, g'azab, o'ziga ishonch, qo'rquv, afsuslanish.

"Men seni tushunaman"  metodikasi

Mazkur mavzu alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham to'liq tushunarli bo'lishi uchun **“Men seni tushunaman”** 🗣️ metodikasidan foydalaniladi. Ko'zlangan asosiy maqsad bolalarda sinfdoshlari his-tuyg'ularini tushunish, mehr-muruvvat ko'rsatish va ijtimoiy moslashuvni shakllantirishdir.

Dastlab bolalar rasmiy yuz ifodalari ko'rsatiladi: 😊 😐 😞 😡.

O'qituvchilar so'raydi:

Bu bola nima qilmoqda?

U xursandmi yoki yig'layaptimi?

Agar do'stingiz yig'lasa, nima qilasiz? → **“Yordam beraman”**

O'qituvchi va bolalar kichik rolli o'yin o'ynaydi. 1-bola yiqilib tushadi (rol o'ynaydi), 2-bola oldiga kelib: **“Yaxshimisan?”**, **“Men senga yordam beraman”** deb aytadi. So'ngra barchalari bir-biriga: **“Biz bir-birimizni tushunamiz”** deb aytadi.

Dars yanada qiziqarli bo'lishi uchun **“Do'stinga nima kerak?”** (5 daqiqa) rasmiy topshirig'i ustida ishlanadi. Har bir bolaga rasm beriladi. Do'sti yomg'irda qolgan, yig'layapti, uyga ketolmayapti.

“Unga qanday yordam beramiz?” deb so'ralganda **“Soyabon beramiz”**, **“U bilan yuramiz”**, **“Yonida bo'lamiz”** kabi javoblar berishiga harakat qilinadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ota-onasi bilan birgalikda ijtimoiy hayotda hamda ta'lim-tarbiya berish jarayonida bo'layotgan voqea-hodisalarni kuzatib, undan olgan kayfiyat qanday ekanligini belgilab kelinadi.



Yomon kayfiyat



Yaxshi kayfiyat



A'lo kayfiyat

№	Hodisa	Belgi
1.	Qiyin masalani yechdim	
2.	Daftarni yo‘qotib qo‘ydim	

12-13-dars. Biz bir-birimizga yordam beramiz

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga bir-biriga yordam berish ko'nikmalarini shakllantirish natijasida ularning ijtimoiy moslashuvida o'ziga bo'lgan ishonchi rivojlantiradi.

Bunda:

yordam tushunchasini tushuntirish;

amaliy ko'rsatmalar berish;

rol o'ynash orqali mashq qilish;

jamoaviy faoliyat va o'yinlardan foydalanish;

birgalikda rasm chizish yoki yordam berishni real vaziyatlarda mashq qilish;

hikoyalar va vizual materiallar orqali tushuntirilishi maqsadga muvofiqdir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda **bir-biriga yordam berish** ko'nikmalarini shakllantirish uchun tushunchani oddiy va amaliy tarzda yetkazib berish kerak. Rol o'ynash, jamoaviy o'yinlar, hikoyalar va real vaziyatlar orqali bolalar yordamning ahamiyatini tushunib, uni kundalik hayotda qo'llay boshlashi zarur.

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda ijtimoiy hayotda hamda ta'lim-tarbiya berish jarayonida bo'layotgan voqea-hodisalarni kuzatish natijasida olingan kayfiyat kuzatiladi.

	Barcha o'quvchilar bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'rtasida do'stlik, hamkorlikda ishlash, yordam berish, birgalikda o'qish, vaqtni mazmunli o'tkazish maqsadida Akmal va Madina suhbatidan foydalaniladi. Madinani Akmalga hovli tozalashga yordam berishi natijasida ularning do'stligi yanada mustahkamlashganligi, undan tashqari o'rtoqlari bilan o'ynashga vaqti ham qolganligi aytib beriladi.	
---	---	---

Yaxshilik qilish katta yoki kichik, kuchli yoki kuchsizlikka qaramasligi barcha o'quvchilarga **“Sher bilan sichqon”** masali orqali tushuntirib beriladi. Sher sichqonni yeb qo'ymasdan yaxshilik qilgani uchun unga ham yaxshilik qilib javob qaytarishini aytadi va kunlardan bir kuni ovchilar she'rni tutib, arqon bilan daraxtga mahkam bog'lab qo'yadi.





Sherning o'kirgan ovozini sichqon eshitib yordamga keladi. Arqonni kemirib she'rni ozod qiladi.

Masal yuzasidan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni fikrlarini aniqlash maqsadida savol-javob tashkil qilinadi. Sichqon sherni qutqarib nimani his qilganligi yuzasidan bolalarni fikrlari eshitiladi.

Barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yordam bergan insonga doim minnatdorlik bildirish zarurligi tushuntiriladi. Bu yordam bergan odamni xursand qiladi, ruhi tetik bo'ladi. Birov bergan yordamga e'tiborsiz bo'lish odobdan emas.



Dars jarayoni qiziqarli bo'lishi uchun darslikning 41-sahifasida berilgan maqollar davom ettiriladi. Maqollar davom ettirilgandan keyin ma'nosi amaliy

Katta ishda

Birikmagan kuch – puch.

**Mard – kurashda,
Do'st – tashvishda,**

kichik yordam ham qadrlidir.

Birikkan kuch – kuch,

dono g'azabda sinalar.

misollar orqali ochib beriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga kimgadir yordam berish boshqa odamlar bilan foydali bo'lsa, ba'zilar esa yordamga o'xshab ko'rinish oladi. O'ylab qarasa yordam emas, zarar ekanligi aytiladi.

Misol keltirib tushuntirish maqsadga muvofiqligini inobatga olinib, Madinani Akmalga uy ishlarini qilishda bergan yordami yaxshi ish ekanligi, ammo uy vazifasini ko'chirtirish yaxshi ish emasligi ta'kidlanadi. Har bir o'quvchini fikrlari eshilib ko'riladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda **“Bir birimizga yordam beramiz”** mavzusida kollaj tuzib kelinadi.



Darslikning 42-43-sahifasidagi rasmlar hamda keltirilgan gaplar asosida har qanday vaziyatda ham rost gapirish va undan kattalarni xabardor qilish zarurligi, aybini tan olish lozimligi, qilgan aybini boshqa birovlariga ag'darmasdan o'zi tan olishi lozimligi tushuntirib beriladi.

Sarvar guldonni sindirib qo'yib, yuzaga kelgan vaziyatni unutib yubormoqchi ekanligi, keyin uni ustozidan yashirishga uringanligi, o'zini aybini Ozodaga ag'darib ustoziga aytganligi xato ish ekanligi aytib beriladi.

Bu jarayon alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga to'liq tushunarli bo'lishi uchun har bir fikr rasm asosida ochib berilishi lozim.

Odamlarning yaxshisi – odamlarga foydalirog'idir.

Hadis

Mazkur hadis mazmuni amaliy misollar bilan tushuntirilib, yod oldiriladi.

“Yordamchi qo'lim” metodikasi

O'tilgan dars alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lishi uchun **“Yordamchi qo'lim”**  metodikasidan foydalaniladi. Ko'zlangan maqsad bolalarga tengdoshlariga mehr bilan munosabatda

bo'lish, yordam berish va birgalikda harakat qilish ko'nikmasini shakllantirishdir.

Bolalarga quyidagi rasmlar ko'rsatiladi: Bola kitob ko'tarib bermoqda, do'stining qo'lidan ushlab yurmoqda, stulni tortib olib bermoqda va hokazo.

O'qituvchi savol beradi: **“Bu bolalar nima qilmoqda?”** → **“Yordam beryapti”**. **“Siz ham do'stingizga yordam berasizmi?”**, deb savol berib bolaning javobi yoziladi.

Jarayon yanada tushunarli bo'lishi uchun rolli o'yin tashkil qilinadi.

Har bir bola juftlikda ishlaydi. Biri daftarini tushirib yuboradi – ikkinchisi esa olib beradi. Biri o'tirishga qiynaladi – ikkinchisi esa stulini surib beradi.

O'qituvchi har bir holatni alohida aytadi: – **“Bu yordam”**, **“Sen yaxshi do'stsan”**.

Jismoniy mashq (*Yordamchi qo'limni cho'zaman 3 daqiqa*) ham qilinadi. Bu uchun o'qituvchi aytadi, bolalar harakatni bajaradi:

Do'stim yiqildi – qo'limni cho'zaman;

Do'stim yuk ko'tarolmaydi – men yordam beraman;

Do'stim xafa – men quvontiraman.

O'qituvchi savol beradi: **“Nega yordam berding?”**;

Bolani esa **“Chunki men yaxshi do'stman”** deb javob berishiga harakat qilinadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yaqin kunlarda ularga kim yordam bergan bo'lsa rahmat aytib qo'yish vazifasi beriladi.

14-15-dars. Ishonamiz va tekshiramiz

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Bolalar yaqin kunlarda ularga kim qanday yordam berganligi va qanday vaziyatda rahmat aytganligini so'zlab beradi.

Mazkur dars davomida oila, oila a'zolari, ota-ona, bobo-buvilar, aka-ukalar, opa-singillar, yaqin va uzoq qarindoshlar haqida ma'lumot beriladi.

Barcha o'quvchilar qarindoshlari bilan vaqtni qanday o'tkazishini so'zlab berishi kerak.

Yaqin va uzoq qarindoshlarga kimlar kirishi ham aytib o'tilishi kerak. O'qituvchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onasi yordamida ularning oila a'zolari misolida yaqin va uzoq qarindoshlarini sanab beradi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ishonch va egallagan bilimlarini tekshirish ularning shaxsiy rivojlanishida, egallagan bilimlarining mustahkamlanishida va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bunda:

ishonch tushunchasini shakllantirish;
bilimlarni tekshirish tushunchasini shakllantirish;

bilimlarni tekshirishni o'yin shaklida tashkil etish;

amaliy mashg'ulotlar orqali bilimlarni tekshirish;

tajriba orqali o'ziga ishonchni mustahkamlash;

bolalarga xato qilishdan qo'rqqanlikni o'rgatish kabi amaliy ishlar bajarilishi lozim.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ishonch va egallagan bilimlarini tekshirish uchun kichik yutuqlarni nishonlash, o'yin shaklida bilimlarni tekshirish va ularning muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish, o'zlari muvaffaqiyat qozongan vazifalarni ko'rishlari va tushunishlari zarur.



Berilgan rasm asosida har bir bola o'zini oilasi haqida gapirib berishi, undan tashqari oila davrasida o'zini tutishini aytishi lozim.

Darslikning 46-sahifasidagi rasm asosida hammaning o'z muloqot doirasi mavjudligi ochib beriladi.

Markazga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar qo'yiladi va ular atrofidagi odamlar misol tariqasida aytib tushuntiriladi.



Muloqot doirasiga kimlar kirishi mumkinligini alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga o'rgatishda foydalanish uchun berilgan so'zlarning ma'nosi hamda qanday inson ekanligi tushuntirib beriladi. Shundan keyin guruh bo'lib javoblar berib boriladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda **“Men ishonadigan odamlar”** mavzusida rasm chiziladi va kollaj tayyorlanadi.

Darslikning 47-sahifasidagi hikoya asosida begona, notanish odamlar bilan gaplashishdan ehtiyot bo'lish, ba'zi odamlarning niyati yomon bo'lsa ham, o'zini yaxshi odam qilib ko'rsatishi, biror shirinlik yoki sovg'a berib, o'zini yaqin tutishidan ehtiyot bo'lish zarurligi tushuntiriladi.

Bolalar o'zi, oilasi va do'stlari haqida begonalarga gapirib berish mumkin emasligi ham aytib o'tilishi zarur.

Begona odamlarning oldida ishonchsizlik, qo'rquv yoki jahli chiqqanligi sezilganda, ularning oldidan tezroq nari ketish kerak.

Qachon **“YO‘Q, BAS QILING”** kabi so'zlarni ishlatish kimdir g'alati so'zlar, yoqimsiz muomala qilsa ota-onalarga, o'qituvchilarga aytish, kattalardan yordam yoki maslahat so'rashdan tortinmaslik zarur.

Darslikning **48-49-sahifalarida** berilgan qoidalarni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga qoidalar yodida saqlab qolishi uchun berilgan rasmlar alohida alohida qilib chiqarib olinadi. O'qituvchi har bir rasmni tushuntiradi. Undan keyin rasmga mos berilgan savollar moslab qo'yiladi. So'ngra berilgan ma'lumotlar ham moslab qo'yib chiqiladi. Guruh bo'lib rasmga mos savollar, ma'lumotlar moslab chiqiladi. Bu jarayonlar yakunlangandan keyin asta sekinlik bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar moslab ko'rsatadi.

Shu kabi qoidalar tushuntirib berilgandan keyin berilgan gaplar to'ldiriladi.

Qoidalar kerak, chunki

Men ...ga yordam so'rab murojaat qilishim mumkin.

Agar ... men nima qilishni bilaman.

“To'g'rimi yoki noto'g'rimi?” metodikasi

Mazkur dars barcha bolalarga tushunarli bo'lishi uchun **“To'g'rimi yoki noto'g'rimi?”** metodikasidan foydalaniladi. Ko'zlangan maqsad bolalarda har qanday axborotni eshitganda, uni tekshirish va o'z fikrini shakllantirish ko'nikmasini bosqichma-bosqich rivojlantirishdir.

O'qituvchi so'raydi: **“Do'sting: ‘Bugun maktab yo'q desa – ishonasanmi?”**, **“Nega?”** – Bolalar o'z fikrini aytadi. – **“Biz eshitamiz, lekin tekshirib ko'ramiz”**

“To'g'rimi yoki yo'qmi?” (5 daqiqa) o'yini o'tkaziladi. O'qituvchi ba'zi gaplarni o'qiydi, bolalar **“Ha”** yoki **“Yo'q”** kartochkasini ko'rsatadi.

“Quyosh tunda chiqadi” → **“Yo'q”**, **“Kitobni kutubxonadan olamiz”** → **“Ha”**, **“Suvni ichmaymiz”** → **“Yo'q”**.

Shuningdek **“Qanday bilib olding?”** → **“Buni bilaman”**, **“Ko'rdim”**, **“O'qituvchim aytgan”** kabi savol javoblardan foydalaniladi.





Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda darslikning **48-49-sahifalarida** berilgan qoidalar yod oldiriladi.

16-dars. Takrorlash


O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda darslikning **48-49-sahifalarida** berilgan qoidalarni aytib beradi.

Ushbu dars davomida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yaxshilik qilish, yaxshilikka doim yaxshilik bilan javob qaytarish kabi fazilatlar aytiladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan intellektida muammoli bolalar bilan o'rganilgan ma'lumotlarni takrorlanishni ta'minlash maqsadida asosan aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar o'rgangan ma'lumotlarini qisqa davr mobaynida xotirasida saqlab qolishini inobatga olib, uzoq davriy eslab qolishi uchun mavzularni vaqti-vaqti bilan turli xil xatti-harakatlar orqali takrorlanishi kerak.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kichik natijalarni ham o'qituvchilar tomonidan rag'batlantirish kerak.



Bolalarga “**Yaxshilik**” hikoyasi misolida Saxiy odam sahroda och-nahor qolgan kimsaga yordam bersa, u noshukur bo'lsa qochib ketsa ham saxiy odam bu holatni hech kimga aytmasligini, odamlar yaxshilikka

yomonlik bilan javob qaytishi mumkin degan xulosaga kelib qolishi mumkinligini aytadi.

O'tilgan darslar savol-javob, aniq amaliy misollar, tarqatma materiallar bilan tushuntirishdan tashqari guruh bo'lib testlar yechish bilan ham mustahkamlanadi.

Olimlar baxtli yashash va sog'lom bo'lish uchun tavsiya qilgan ishlarini har birini mazmuni ochib beriladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga olimlar baxtli yashash va sog'lom bo'lish uchun bergan tavsiyalariga amal qilish zarurligi aytiladi.

17-18-dars. Men - insonman

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga olimlar baxtli yashash va sog'lom bo'lish uchun bergan tavsiyalarini aytib berishi hamda hozirdan boshlab qaysilariga amal qilayotganligini sanab beradi.

Erkin Vohidovning she'ri orqali barcha o'quvchilarga inson, hamma odamlar bir xil yoki har xilligi haqida umumiy tushuncha beriladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga "Men-insonman" tushunchasini shakllantirishda ularning o'zlarini jamiyatning bir qismi sifatida anglashi, o'z qadr-qimmatini his qilishi va shaxsiy identifikatsiyasini rivojlantirishda muhim hisoblanadi.

tanasi va hissiyotlarini tushunishga yordam berishi;

hissiyotlarni tushuntirishi;

"Men boshqalar bilan bir xil va farqli insonman" tushunchasi shakllantirishi;

umumiylik va farqlilikni tushuntirish;

"Men qadrli insonman" tushunchasini rivojlantirishi;

"Men jamiyatning bir qismiman" tushunchasini shakllantirishi;

o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishi;

hikoyalar va vizual materiallardan foydalanishi;

har bir bola o'z ismi, qobiliyati va yaxshi xislatlari bilan o'zini tanishtirishi kerak.



Akmal va Madina suhbatida misolida o'quvchilarning hammasi har xil ekanligi, Sarvar rasmni o'xshatib chiza olishi bilan, Aziza mental arifmetikaga borishi va katta-katta sonlarni xayolida hisoblay olishi bilan ajralib turishini aytib beriladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlari bo'lishi, ularni rivojlantirish natijasida inson o'z mehnati bilan atrofidagi olamni yanada go'zal qilib jamiyatga hissa qo'shishi, o'zi ham kamol topishi maktabga kelgan vaqtdan boshlab erishgan natijalari misolida tushuntiriladi.



Dastlab rasmdagi har bir holat alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushuntirib berishi kerak bo'ladi. Undan keyin foydalanish uchun berilgan so'zlardan foydalanib yoqtirgan qahramonni xuddi o'zi yaxshi taniydidigandek tasvirlab hikoya tuziladi. Yozishni xohlamasa rasmga qarab og'zaki hikoya qilib berishi tavsiya qilinadi.

Darslikning 54-sahifasidagi “**Iste’dodlar kuni**” hikoyasi asosida har bir alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarni qaysi ishlarni qiziqib bajarishi, yaqin do’stlariga nimalarni o’rgata olishi tushuntiriladi.

Hikoyada Aziz yog’ochdan kema yasaganligi, Madina xorazmcha raqsga tushganligi, Komila ona haqida she’r o’qib berganligi, hikoya qahramoni esa kitob o’qishni yaxshi ko’rishi aytiladi.

Hikoyada keltirilgan bolalarning qobiliyatlaridan qaysi biri ma’qul kelganligi so’raladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar ota-onasi bilan maslahatlashib yaqin do’sti nimani o’rganishi mumkinligini o’ylab topib keladi.



Darslikning 55-sahifasidagi “Dunyoni lol qoldirgan sozanda” hikoyasi orqali alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga muvaffaqiyatga erishish uchun tinimsiz mehnat qilish va shu natijasida o’zi, ota-onasi, jamiyat uchun qanday foyda keltirishi mumkinligi namuna sifatida aytiladi.

Behzod mohir sozandalik orqasidan tez-tez gastrol konsertlariga borib turishi, Tokio, Sidney, Parij, London va boshqa shaharlarda uning muxlislari sabrsizlik bilan kutishadi.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar qobiliyatini aniqlashga yordam beradigan belgilar:

bu ishni qilishni doim xohlaydi;

bu ish unga zavq beradi;

atrofdagilar ham shu ishga unda qobiliyat borligini aytadi.

Kimningdir yozuvini chiroyli bo’lishi, kimdir hikoya yozishi, kimdir sportda yaxshiroq natija berishi bu biror ishdagi yorqin, noyob qobiliyat ya’ni iste’dod ekanligi sinfdagi faol o’quvchilar misolida tushuntiriladi.

Oramizda o’tirgan har bir o’quvchini o’ziga yarasha qobiliyati hamda iste’dodi borligini, bu iste’dodni doim foydali ishlarga sarflash zarurligi ta’kidlanadi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham muhokamaga jalb qilgan holatda muhokama tashkil qilinadi. Ishni a'lo darajada bajarsa o'zini qanday his qilishi, biror ishni qila olmasa, iste'dodni qanday qilib rivojlantirish kerakligi, qanday qilib qobiliyatni foydali ishga yo'naltirish masalalari ko'riladi.



Berilgan rasmlarni har biri alohida alohida tushuntirilib, qaysi qobiliyat rivojlantirilayotganligi aytiladi. Shundan keyin bolalardan rasmda keltirilgan jarayonlardan qaysi biriga qiziqishi ortganligi so'raladi.

Barcha bolalarda tushuncha hosil bo'lgandan keyin gaplar to'ldiriladi.

Iste'dodlarni rivojlantirish uchun ... qilaman.

Biror ishni qila olmasam,

Mening iste'dodim...ga foydali bo'lishi mumkin.

“Men – insonman” metodikasi

Barcha o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun **“Men – insonman”** metodikasidan foydalaniladi. Ko'zlangan maqsad bolada o'zini shaxs sifatida anglashi, insoniy qadriyatlarni tushunishi va o'zini hurmat qilish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

O'qituvchi bolalarga oddiy savollar beradi: Isming nima?, senga nimani qilish yoqadi?, sening sevimli ranging qaysi?

Bu kabi savollarni berishdan maqsad – bolaning o'ziga bo'lgan e'tiborini faollashtirish hisoblanadi.

O'qituvchi quyidagicha tushuntiradi: **“Har bir inson noyob, shundan kelib chiqib, sen ham insonsan”**. Inson bo'lish - mehribonlik, yordam berish, his-tuyg'ularni tushunish, orzu qilish kabilar deganidir. Shundan kelib chiqib biz bir-birimizni hurmat qilishimiz kerak, chunki har birimiz qadrli shaxsmiz. Bu kabi berilgan ma'lumotlar oddiy so'zlar, jismoniy ishoralar, suratlar yoki piktogrammalar yordamida tushuntirish beriladi.

Har bir bolaga kichik kartochkalar beriladi. Unda quyidagi gaplar yozilgan (*piktogrammalar yoki rasmlil yordam bilan*): men yaxshi insonman, men yordam bera olaman, menga e'tibor kerak, men do'st bo'la olaman va hokazo.

Bolalar kartochkani tanlaydi va uni ifodalaydi (aytadi yoki ko'rsatadi).

O'qituvchi yakunlaydi: **“Sen – insonsan, sen muhimsan, sen yaxshi ishlarga loyiqsan, biz birgamiz!”**

Qo'shimcha metodik ko'rsatmalar:

har doim bola tushunadigan oddiy, ravon tilda gapiring;

suratlar, imo-ishoralar, jismoniy ko'rsatmalardan foydalaning;
bolaning hissiyotlarini e'tiborga oling – uni eshitish va qabul qilish
muhimligiga amal qiling.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar
iste'dodli tanishlari nima bilan shug'ullanishi haqida ma'lumot topib
keladi.

19-20-dars. Mehr-oqibat nima?

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan iste'dodli tanishlari nima bilan shug'ullanishi haqida gapirib beradi.

Darslikning 57-sahifasida berilgan davom maqollarni davomi topilib, mazmuni tushuntiriladi. Undan keyin birinchi ustunning davomiga mazmunan to'g'ri keladigan ikkinchi qatordagi jummalarni to'g'ri qo'yish so'raladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga mehr-oqibat tushunchalarini shakllantirishda:

- shaxsiy o'rnak ko'rsata olish;
- ijtimoiylashuv hamda hissiy ongni rivojlantirish;
- ijtimoiy didaktik o'yinlar va hamkorlik qilish faoliyatini oshirish;
- yordam ko'rsata olish imkoniyatlarini yaratish;
- rag'batlantirish;
- maxsus materiallar, yordamchi texnologiyalar va vositalardan foydalanish;
- sensorli faoliyatlarni tashkil qilish;
- shuningdek individual yondashuv ham talab qilinadi.

Mehrli odam –

mehrsizdan hamma
qochar.

Kimning qalbida
mehr bor,

sevimli.

Mehr bersang
qadring oshar,

unda sehr bor.



Dastlab alohida ta'lim ehtiyojlaridan rasmda nima va qanday holat tasvirlanganligi so'raladi. Ularning fikrlaridan keyin eshitilib aniqlangan kamchiliklar to'g'rilab bola qanday yaxshilik qilganligi tushuntirib beriladi.

Bolalardan boshqa (sog'lom) o'quvchilar yaxshilik qilganda, o'zlari boshqa shaxslarga yaxshilik qilganda o'zini qanday his qilganligi yuzasidan fikrlari eshitiladi.

	Akmal va Madina suhbatida misolida dars jarayonlarida murakkab masalalar hamda tezlikda bajaradigan topshiriqlar berilganda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yordam berish, hamkorlikda ishlash mehribonlik belgisi ekanligi tushuntirilishi lozim.	
---	--	---

Yana bir bor yaxshilik tushunchasi darslikda berilgan amaliy misollar orqali orqali tushuntiriladi.



Berilgan rasmlar asosida ko'chada, maktabda, do'konda, transportda odamlarga qanday yaxshilik qilish mumkinligi yuzasidan sinfdoshlari bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar muhokama qiladi.

Rasmlardan qaysi biri bolaga yoqqan bo'lsa albatta qilib ko'rishi mumkinligi yuzasidan tavsiyalar beriladi.

Darslikning 59-sahifasida berilgan jumladan nima yaxshi va nima yomonligi guruh bo'lib ishlanadi. Har bir jumlani ma'nosi aniq misollar bilan tushuntirib berilishi kerak.

Birovning xursandchiligiga sherik bo'lish	Ezgu ishlarni qilish
Yarim kechagacha multfilm tomosha qilish	Yaqinlarning tabassumi
Kechira olish	Birovning jig'iga tegish
To'g'ri javobni ko'chirib olish	Do'stiga yordam berish
Qiynalgan odamga yordam berish	Atrofdagilarga qo'rslik, loqaydlik



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda bolani asosiy vazifasi odamlar yaxshilik qilish deb qarab, amalga oshirgan yaxshi ishlarini yozib keladi. Iloji boricha uni pedagoglardan boshqa shaxslar ko'rmasligi ta'kidlab o'tiladi.



Darslikning 60-61-sahifasidagi **“Mushuklar uchun shahar”** hikoyasi orqali barcha o‘quvchilar singari alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarda ham qarovsiz qolgan hayvonlarga mehr ko‘rsatish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Bu ko‘nikmalar bolalarda aniq tushunarli bo‘lishi uchun hikoya qahramonlari Bekzod va Sashani birgalikda amalga oshirgan ishlari ketma-ketlikda tushuntiriladi. Ular

onasidan ayrilgan mushukchalarni topib olib, birgalikda ko‘chada qolgan mushukchalarga uy qurishga kelishib olishgani, bu uchun dastlab ruxsatnoma olish zarurligi, mahalla fuqarolar yig‘iniga borib mahalla raisiga niyatlarini aytishgani, o‘qituvchisini xabardor qilishgani aytiladi.

To‘siq bilan o‘ralgan joy topib, tozalab, gullar va ko‘chatlar ekib, uylar qurishadi. Bu jarayonni amalga oshirayotgan bolalar soni o‘n yetti nafarga yetadi. Yangi turilgan shaharchani **“Mushukkent”** deb nomlashadi.



“Mehr-oqibat nima?” metodikasi

Dars qiziqarli bo‘lishi uchun **“Mehr-oqibat nima?”** metodikasidan foydalaniladi. Ko‘zlangan maqsad bolalarda mehr-oqibat, do‘stlik, yordam berish tushunchalarini shakllantirish, o‘zaro hurmat va g‘amxo‘rlikni rivojlantirishdir.

Dastlab kirish qismi sifatida savol-javob orqali suhbat tashkil qilinadi. Bunda: **“Mehr nima?”**, **“Kimdir sizga yordam berganmi?”**, **“Siz kimlarga yordam bergansizmi?”** kabi savollaridan foydalaniladi. Maqsad: bolalarni mavzuga qiziqtirish, barcha bolalarni shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishdir.

Oddiy izoh bilan: **“Mehr – bu boshqalarga g‘amxo‘rlik qilish, yordam berish, yaxshi so‘z aytishdir, oqibat – bu do‘stlarga, oilaga, har bir kishiga mehr bilan munosabatda bo‘lishdir”** deb aytiladi.

Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga vizual yordam sifatida rasmlar (*ona bolasini bag‘riga bosmoqda, bola do‘stiga suv tutyapti, o‘qituvchi bolaga yordam beryapti*)dan foydalaniladi. Undan keyin **“Mehrli qo‘llar”** mashqi (10 daqiqa) o‘tkaziladi. Har bir bola qog‘ozga o‘z qo‘lini chizadi yoki kesilgan qog‘oz qo‘llar tarqatiladi.

Har bir qo‘lga shunday so‘zlar yozishi kerak (*yoki bolaga aytiladi, u tanlaydi*) **“Men yordam beraman”, “Men do‘stimni eslayman”, “Men mehrliman”, “Men kechira olaman”**.

Bolalar tanlagan qo‘lni bo‘yashadi yoki ko‘rsatib, mazmunini aytishadi.

Yakuniy qism (5 daqiqa)da **“Mehrli do‘stim”** o‘yini tashkil qilinadi. O‘qituvchi: **“Kimdir bugun mehr ko‘rsatdimi?”** deydi.

Bolalar aytadi yoki imo-ishora bilan ko‘rsatishi kerak bo‘ladi: **“Mehr – bu yuragimizdagi eng yaxshi tuyg‘u”**. **“Biz mehrli bo‘lsak, sinfimiz quvnoq va do‘stona bo‘ladi!”**.

Mashg‘ulot davomida tavsiyalar:

rasm, kartochka va imo-ishoralardan foydalanish;

gapirishda oddiy, ravon tilda gapirish;

bolalarning javoblarini rag‘batlantirish (*quvnoq ovoz, olqish, tabassum bilan*);

harakatli qismlar va jismoniy ifoda imkoniyatlarini oshirish mumkin.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar **“Do‘stlar”** multfilmini tomosha qilishadi. Ota-onasi bilan birgalikda nimalarni o‘rganib chiqqanligini so‘zlab berishga tayyorlanib kelishadi.

21-dars. Halollik nima?

Eslatma: alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga halollikni o'rgatishda:
aniq va sodda til ishlatish, ko'proq misollar va vizual materiallardan foydalanish;
kundalik hayotdagi vaziyatlar orqali ularga to'g'ri va noto'g'ri xulq-atvorni ko'rsatish;
o'yinlar va mashg'ulotlar orqali bolalar o'z xulq-atvorlarini rivojlantirish;
muntazam ravishda ijobiy rag'batlantirish va to'g'ri xulq-atvorni qo'llab-quvvatlash;
oddiy va qisqa hikoyalar orqali bolaga haqiqatni aytishning ahamiyatini ko'rsatish;
vizual vositalar (plakatlar, rasmlar, materiallar) orqali halollikni o'rgatish;
agar bola halollikdan chetlatilsa yoki xato qilsa, buni muhokama qilish va ularni yaxshilashga yordam berish kerak.

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan **“Do'stlar”** multfilmini tomosha qilib, Ota-onasi bilan birgalikda o'rganib kelgan ma'lumotlarini so'zlab berishadi.

	O'quvchilarga halollik hamda rostgo'ylik o'quvchi qiz va Akmal suhbatida tushuntirib beriladi. Qiz Akmal dan qalamini kim olganligini so'raganda, u Munisa qizil rangni yaxshi ko'rish uchun u olganligini aytadi. Aslida esa qiz hali qalam rangini aytmagan edi.	
---	--	---



Shuningdek o'qituvchi kimdir yolg'on gapirib qo'ysa so'zlari, yuz qarashlari orqali sezdirib qo'yishini yuqoridagi suhbat misolida tushuntirib ketishi zarur.

Rostgo'ylik haqida tushuncha berilib, rostgo'y odam va'da berdimi albatta uni bajarishi zarurligi, tili va dili bir bo'lishi aytiladi.

Rost gapirish jasurlik talab qilishi inson hayotida uchragan aniq misollar orqali tushuntiriladi.

Dars davomida o'tilayotgan ma'lumotlar mustahkamlanishi uchun kichik guruhlariga bo'linib namunada berilgan so'zlardan foydalanib muhokama qilinadi. Berilgan savollarga javob beriladi.



Namunada berilgan har bir so'zning ma'nosi tushuntirib beriladi.

Qaysi so'z rostgo'ylikka to'g'ri kelmasligi aniq misollar bilan tushuntirilishi, topqirlik bilan aldashning farqi, aytgan so'ziga javob berishi deganda nima tushunilishi hayotiy misollar asosida o'rgatiladi.

Berilgan har bir jumla ma'nosi ochib berilib aniq, sodda tushunarli hayotiy misollar bilan ifodalab, o'rtoqlariga qanday maslahat berishi, yomon maslahatni topib yaxshisiga almashtiriladi. Almashtirilgan yaxshi fikrning ma'nosiga ham alohida to'xtalib o'tiladi.



Halollik hamda rostgo'ylikka undaydigan maqollar o'qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi, undan keyin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga maqol mazmuni aytib berilgandan keyin qaysi maqol ta'riflanganligi topiladi.

**Kecha aldagan odamga
ertaga hech kim
ishonmay qo'yadi.**

**Yolg'onning oxiri
voy.**

Yolg'onning umri qisqa.

Insonga nima yaxshi-yu nima yomonligini aytib turadigan ichki ovoz vijdon ekanligi hayotiy misollar asosida tushuntirib berilishi maqsadga muvofiq.

O'tilgan dars qiziqarli bo'lishi uchun guruhlarda muhokama qilinadi. Muhokamada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham alohida vazifalar berib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bolalar oson tushunishi uchun vaziyat yuzasidan berilgan savollar rasmlar bilan bog'lab aytish lozim.



Halol insonlar maktabda ko'pchilik uchun o'rnak bo'ladigan o'qituvchi hamda o'quvchilar misolida bevosita hayotda uchratib kelayotgan vaziyatlarda tushuntirib beriladi.

Bunday insonlarni hamma hurmat qilishi, unga ishonishi, do'stlari ko'p ekanligi aytiladi.



Zumrad va Qimmat



Karlson



Karabas-Barabas



Dono bola

“Hayotiy voqea, rolda ishtirok etish, vizual yordam” metodikasi
Dars mazmuni tushunarli bo'lishi uchun **“Hayotiy voqea, rolda ishtirok etish, vizual yordam”** metodikasidan foydalaniladi.

Ko'zlangan asosiy maqsad bolalarda halollik tushunchasini shakllantirish, uni hayotiy vaziyatlar orqali tanish va o'z xatti-harakatlarini baholashga o'rgatishdir.

Hayotiy voqea orqali tushuntirishda bolalarga real hayotdan olingan yoki ularning kundalik hayotiga yaqin biror voqea hikoya qilib beriladi.

Masalan: **“Maktabdan qaytayotgan bola yo‘lda pul topib oldi, u nima qildi?”** kabi sodda voqealardan foydalanish mumkin.

Muhim jihati shundaki hikoya qisqa, aniq va bolaning yoshi, tushunish darajasiga mos bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Bolalarni hikoyada aytilgan voqeani yoki shunga o‘xshash holatni o‘zlari rollarda o‘ynab ko‘rsatishi uchun sharoit yaratib beriladi.

Kimlar ishtirok etadi: 1-bola (*topuvchi*), 2-bola (*egasi*), 3-bola (*guvoh*), o‘qituvchi (*yo‘riqchi*) bo‘ladi.

Vizual yordam sifatida hikoya yoki rolli o‘yinga mos rasmlar, kartochkalar, piktogrammalar yoki suratlar ko‘rsatiladi. Misollar: **“Halol ish” (do‘stiga yordam berayotgan bola rasmi)**, **“Halol bo‘lmagan ish” (Rost gapirmayotgan bola rasmi)**, **“Topilgan buyumni qaytarish”** rasmi.

Vizual yordamlar bolalarning eslab qolishini osonlashtiradi va tushunishni mustahkamlaydi.

Ko‘zlangan maqsad bola o‘z harakati orqali halollikni his qiladi va to‘g‘ri qaror qilishni o‘rganadi.

Mazkur metodikaning afzalliklari:

bolalar voqeani tushunish orqali emas, his etish orqali o‘zlashtiradi;

o‘yin orqali o‘rganish jarayoni qiziqarli va faol kechadi;

rasmlar orqali ko‘rgazmali ta’sir kuchayadi;

har bir bola o‘z imkoniyatiga ko‘ra ishtirok etadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar

ota-onasi bilan birgalikda ertak qahramonlari eslanadi. Ulardan qaysi bir nohaqlik qilganligi, sevimli qahramonlar qanday fazilatlarga ega ekanligi bilib kelinadi.

22-23-dars. Hurmat va xushmuomalalik

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda berilgan ertak qahramonlari eslanib, ulardan qaysi bir nohaqlik qilganligi, sevimli qahramonlari esa qanday fazilatlarga ega ekanligini aytib beradi.

Foydalanish uchun berilgan har bir jumalarni ma'nosi tushuntirib berib, nima uchun kattalarni hurmat qilish zarurligi ochib beriladi.

Berilgan so'zlar ma'nosi yanada tushunarli bo'lishi uchun maktabda barcha taniydigan o'quvchilarga bog'lab aytish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga hurmat va xushmuomalalik tushunchalarini o'rgatishda:

oddiy va aniq tushunchalardan foydalanish;

hurmatni "boshqalarga yaxshi munosabatda bo'lish" deb sodda qilib tushuntirish;

xushmuomalalikni esa "yaxshi so'zlar ishlatish va odobli bo'lish" deb izohlash;

shaxsiy namuna ko'rsatish;

rag'batlantirish;

rol o'ynash va amaliy mashqlar bajarish;

odob-axloq qoidalarini belgilash;

moslashuvchan darslar va o'yinlar o'yinchoqlar va qo'g'irchoqlar yordamida o'rgatish;

hissiy va ijtimoiy ongni rivojlantirish;

individual yondashish va doimiylik sabr-toqatli bo'lish.



Rasmlarda berilgan har bir kasb egasiga alohida to'xtalib, vazifasi ochib beriladi. Ularning jamiyatda tutgan o'rnini aytiladi. Shu kabi ma'lumotlar bilan xabardor qilingandan keyin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga rasmlar ko'rsatilganda qaysi kasb egasi ekanligi va qanday vazifani bajarishini aytib berishi lozim bo'ladi.



Berilgan rasm asosida shogirdni ustoziga ko'rsatayotgan hurmat namunasi ochib beriladi.

Ularning so'zlari, fikrlari, harakatlari doim qadrligini ekanligi ta'kidlab o'tiladi.

Biz uchun qadrligini va hurmat qiladigan insonlar oila a'zolarimiz va ustozlarimiz ham ekanligini yodimizdan chiqarmasligimiz lozimligi aytiladi.

Barcha o'quvchilarga hurmat qanday bo'lishi, qanday xatti-harakatlar hurmat belgisi foydalanish uchun berilgan so'zlar asosida tushuntiriladi. Har bir berilgan so'z amaliy ko'rsatilib, yuz mimikalari asosida ko'rsatib berish yanada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tushunishi uchun xizmat qiladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda ertaklar, kitob, multfilm va badiiy filmlardan hurmat qiladigan qahramonlarni aniqlab, ularni nima uchun hurmat qilishini aytib berishi kerak bo'ladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda ertaklar, kitob, multfilm va badiiy filmlardan o'zlari hurmat qiladigan qahramonlarni nima uchun hurmat qilishini aytib beradi.

Faqat kattalarni emas, bolalarni ham atrofdegilarga qilgan ishlari hamda fazilatlari orqali hurmat hissi shakllanishi mumkinligi oddiygina sinfdagi jarayonlar misolida ham tushuntirib beriladi. Sinfdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga dars jarayonidagi mashg'ulotlarda boshqa (sog'lom) o'quvchilar tomonidan ko'rsatilgan yordamlari ham hurmat ekanligi aytiladi.

Rasmlardan foydalanib qaysi ish hurmatga loyiq, qaysi biri noloyiq ekanligi tushuntiriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham yodida qolishi uchun har bir rasm ko'rsatilib ma'nosi so'raladi, aniqlangan bo'shliqlar ustida yana ishlanadi.



	Akmal va Madina suhbatini misolida qo‘pollik natijasi yaxshi emasligi, kelishmovchilik kelib chiqishi, bir biridan ko‘ngli qolishi mumkinligi tushuntiriladi.	
---	--	---

O‘qituvchi Akmal bilan Madinani suhbatini yakuniy qismini o‘zgartirib ikkalasi kelishib birga o‘ynaydigan shaklga keltiriladi.

Hosil bo‘lgan o‘zgarish xushmuomalalik ekanligi aytiladi.

Xushmuomalalik insonga hurmatning ajralmas qismi ekanligi sinf, maktab, oiladagi jarayonlar misolida tushuntiriladi.



Har xil yuzaga kelgan vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish, tushunarli qilib yakun yasash, xafa qilib qo‘ymaslik darslikning 70-sahifasida berilgan rasm hamda vaziyatlar asosida ochib beriladi.

Ikki xil vaziyatni qaysi biri mantiqli ekanligi o‘qituvchini o‘qib berganidan keyin alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar aytishi kerak.

Hurmat muloqot eshigining kaliti ekanligi dars jarayonida ikki kishi o'rtasida dialog tashkil qilib ko'rsatib beriladi.



Odamlarni iltimosi to'g'ri kelmasa noiloj ho'p demasdan, yaxshi gap bilan yo'q deb javob berish mumkinligi o'quvchilar o'rtasidagi kichik suhbat asosida tashkil qilinadi.

“Hurmat va xushmuomalalik” metodikasi

Metodikani boshlashdan oldin o'qituvchi bolalarga shunday savol beradi: **“Sizga qanday muomala yoqadi, siz bilan qanday gaplashishlarini xohlaysiz?”**. Bolalar o'z fikrlarini aytishadi. O'qituvchi bu javoblarni umumlashtirib, hurmat va xushmuomalalik - bu insonlarga iliq, muloyim, yaxshi munosabatda bo'lish ekanini tushuntiradi.

Keyin o'quvchilar bilan kichik sahna o'yinlari o'tkaziladi. Masalan, bir o'quvchi eshikni taqillatmay kiradi, boshqasi salom bermaydi. Qolgan bolalar bu holat haqida o'z fikrini aytadi: **“Bu to'g'rimi?”**, **“Siz bu holatda nima qilgan bo'lar edingiz?”** Shundan so'ngra, sahna yaxshi muomala bilan takrorlanadi: salom berish, eshik taqillatish, minnatdorchilik aytish. Bolalar o'rtadagi farqni sezishadi.

Metodika davomida **“Sehrli so'zlar”** o'yini o'ynaladi: **“Iltimos”**, **“rahmat”**, **“kechirasiz”**, **“marhamat”**, **“salom”** kabi so'zlar aytiladi va bolalar bu so'zlar qaysi holatda ishlatilishini muhokama qilishadi. Har bir o'quvchiga qog'ozga bir **“Sehrli so'z”** yozdiriladi va u bu so'z bilan bog'liq kichik hikoya yoki misol keltiradi.

Yakunda bolalarga shunday savol beriladi: **“Bugun kimga rahmat aytmoqchisiz, nega?”** Har bir bola sinfdoshiga, o'qituvchisiga yoki oilasidagi boshqa kimsa haqida aytadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda berilgan maqollarning davomi topiladi va mazmuni misollar orqali tushuntiriladi.

Tilingda bo'lsa boling,

sehri bor.

Mehri borning

**o'zganing ham
qadrini bilmas.**

O'z qadrini bilmagan,

kulib turar iqboling.

24-dars. Sog'lom turmush tarzi

Eslatma: alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga **"Sog'lom turmush tarzi"** ko'nikmalarini shakllantirishda:

soddalashtirilgan tushunchalar hamda hayotiy misollar yordamida oddiy va tushunarli tushuntirish;

shaxsiy namuna ko'rsata olish hamda sog'lom turmush tarziga oid odatlarni bolalar bilan birgalikda bajarish;

egallanishi zarur bo'lgan ko'nikmalarni bosqichma-bosqich o'rgatish;

o'yinlar va interaktiv mashg'ulotlar bajarish;

jismoniy faollikni oshirib borish;

sog'lom ovqatlanish odatlarini shakllantirish;

shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini o'rgatish;

sog'lom uyqu tartibini yo'lga qo'yish;

individual yondashuv hamda o'yinchoqlar, vizual vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda topshiriq sifatida berilgan maqollarning davomi topiladi va mazmuni misollar orqali tushuntirib beriladi.



Barcha o'quvchilarga to'g'ri ovqatlanish, sport bilan muntazam shug'ullanish, tishni tozalab yuvish, tiniqib uxlash sog'lom bo'lish uchun zamin yaratishi ekanligi, natijada kasal bo'lmaslik tushuntirib berilishi kerak.

Sog'lom turmush tarziga amal qilish alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarga darslikning 72-sahifasida berilgan rasmlar ularga berilgan ta'riflar asosida ishlanadi. Dastlab rasm va uning mazmuni tushuntirib beriladi.

Undan keyin har bir rasm va unga berilgan ta'rif alohida alohida qilib kesib

olinadi. Rasm ko'rsatilib, unga mos ta'rif topilib rasm va uning ma'nosi birlashtiriladi.



Barcha o'quvchilarga sog'lom bo'lish qanday foydali tavsiyalar bilishi so'rab chiqiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham fikr bildirishiga alohida ahamiyat beriladi.

“Namuna ko'rsatish, rolli o'yin, vizual ko'mak va ijobiy mustahkamlash” metodikasi

Ushbu dars alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham yanada tushunarli bo'lishi uchun **“Namuna ko'rsatish, rolli o'yin, vizual ko'mak va ijobiy mustahkamlash”** metodikasidan foydalaniladi.

Namuna ko'rsatish maqsadida o'qituvchi yoki bola xushmuomalalik bilan salomlashish, so'z navbatini kutish, odobli so'zlar aytish kabi harakatlarni jonli tarzda ko'rsatadi. Bunda kalit so'zlar sifatida: **“Iltimos”, “Rahmat”, “Kechirasiz”, “Salom”, “Xayr”** kabi so'zlardan foydalaniladi. Bundan bola o'z ko'zi bilan ko'rib, qanday hurmatli va odobli muomala bo'lishini tushunadi.

Bolalar kichik sahnalarni rollarda ijro etadi. **“Do'stingizdan o'yinchoq so'ratingiz - qanday iltimos qilasiz?”**, **“Kimgadir tasodifan tegib ketdingiz - nima deysiz?”** ijro etilgan rollar orqali bolalar xushmuomalalikni amalda qo'llab, o'zlarining his-tuyg'ularini ham anglab yetishni o'rganadi.

Vizual yordam sifatida rangli rasmlar, emoji-kartalar, piktogrammalar orqali hurmat va xushmuomalalik namoyon etilgan holatlarni ko'rsatiladi.

Masalan: **“Salomlashayotgan bolalar” rasmi**, **“Iltimos deyayotgan bola”**, **“Navbat kutayotgan bola”**. Bu ko'rish orqali tushunishni kuchaytirish va rasmlar orqali fikrlashni faollashtirish uchun ast qotadi.

Darsda xushmuomalalik bilan so'zlagan yoki boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lgan bolalarni rag'batlantiriladi (*yulduzcha, olqish, kichik sovg'a*). Bolalarda to'g'ri xulq-atvorni davom ettirishga motivatsiya bo'ladi.

O'tkazilgan metodika orqali:

bolalar qoidani o'rganibgina qolmay, hayotiy harakat orqali odob-axloqni ham tushunadi;

har bir bosqichda bolalarning ishtiroki faollashib boradi;

turli sensor yo'llar (*eshitish, ko'rish, harakat*) orqali eslab qolish imkoniyati kuchayadi;

ijtimoiy munosabatlarda mustaqil harakat qilishga o'rgatadi.



Uyga vazifa beriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi yordamida 5 kun davomida kuniga qancha suv ichayotganligi, ertalab nechada uyg'onayotganligi, kechqurun nechada uxlayotganligi hisoblab kelinadi.

25-dars. Takrorlash

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onasi yordami bilan 5 kun davomida kuniga qancha suv ichayotganligi, ertalab nechada uyg'onayotganligi, kechqurun nechada uxlayotganligini aytib beradi.

Berilgan testlar birgalikda ishlab chiqiladi. To'g'ri javoblar aniqlangandan keyin har birining ma'nosi tushuntirib, tarbiyaviy ahamiyati tushuntiriladi.

Barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ham ajdodlarimizga mehr muhabat hissini uyg'otish maqsadida **"Iste'dod kuchi"** hikoyasi o'qib beriladi. Hikoya mazmuni tushunarli bo'lishi uchun rasmdan ham foydalaniladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojli ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limiga ta'siri qilish mumkin vaziyatlar: berilgan mavzuga mos bo'lgan ko'rgazmali predmetlarning nomlarini aytish orqali tushuntirish;

hid va ta'm, eshitish, taktil yordamida bolaning so'z boyligini boyitishga yordam berish;

bolani ta'lim tashkilotlarida qulay harakatlanishi uchun tengdoshlari yordami zarurligini tushuntirib o'tish;

ko'rishidagi muammoni inobatga olib vazifalarni bajarish uchun qancha vaqt zarurligini aniqlash;

bola nutqini to'g'ri rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish;

tovushlarni bir-biridan farqlashni mashq qildirish orqali bolaning tinglash malakasini oshirish va shu orqali atrof-muhitni tushunishga erishish;



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi yordami bilan Forobiydan yana boshqa bobolarimiz haqida ma'lumot to'plab keladi.

26-dars. Mehmondo'stlik

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan vazifani ota-onasi yordami bilan Forobiydan yana boshqa bobolarimiz haqida to'plab kelgan ma'lumotlari tinglanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni dars jarayoniga jalb qilish maqsadida qachon va kimnikiga mehmonga borganligi, ularnikiga kim mehmonga kelganligi, mehmonga borganda, kelganda o'zini qanday his qilishi, mehmon kutishda ota-onasiga qanday qilib yordam berib jarayonda qatnashishi suhbatlashiladi.

Mezbon sizni mehmonga borganingizdan xursand yoki xursand emasligini nimadan bilish mumkinligi yuzasidan fikr almashiladi. Bunda har bir o'quvchi o'zini hayotidan olib gapirishi mumkinligi aytiladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda "Mehmondo'stlik" ko'nikmalarini shakllantirish uchun mazmunli bo'lgan, qiziqarli va moslashtirilgan yondashuvlar talab qilinadi. Bunda:

talab qilinadi. Bunda:

mehmondo'stlik tushunchasini iddii izoh hamda hayotiy misollar yordamida sodda qilib tushuntirish;

shaxsiy namuna ko'rsata olish;

turli rol o'ynash va mashq qilish

amaliy mashg'ulotlardan unumli foydalanish;

ijtimoiy madaniyatni shakllantirishni maqsad qilib olish;

kichik vazifalar va kundalik hayotiy amaliyotlarda uchraydigan vaziyatlarga solish;

kuchli sabr-toqatli bo'lishi kerak.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga mehmondo'stlikni o'rgatish orqali ijtimoiy moslashuvchanlik oshiradi, ijobiy munosabatlar shakllantiriladi, jamiyatda muvaffaqiyatli shaxs sifatida rivojlanishga yordam beradi.



Akmal va Madina suhbatida misolida tug'ilgan kunni qanday nishonlash va tug'ilgan kunda kimlarni taklif qilish mumkinligi haqida tushuntirib beriladi.



O'qituvchi hamda faol o'quvchilar yordamida yashiringan so'z aniqlanadi.

Bolalar e'tibor to'liq darsga qaratilgandan keyin dastlab qanday qilib mehmon kutib olish zarurligi, undan keyin eshik taqillasa ham Akmal ko'zini

uzmay kiravering eshik ochiq deb baqirishi va bundan mehmonlarni sarosimaga tushib qolganligi yuzasidan tushuntirish beriladi.

Mehmonlarni kutib olish odobi darsda faol o'quvchilar ishtirokidagi kichik sahna ko'rinish asosida rolga kirib sahna ko'rinishi asosida ko'rsatib beriladi.



Mehmonga borganda hamda mehmon kutganda dasturxon odobiga amal qilish zarurligi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushuntiriladi.

Dasturxon odobi tushunarli bo'lishi uchun amaliy ham video materiallar orqali to'g'ri va noto'g'ri bajarilgan video materiallar asosida ham ko'rsatib beriladi.

Dasturxon atrofida
o'tirganda

tirsaklar bilan
dasturxonga tirlamang.

Qoshiq va sanchqilarni
o'ynamang,

oyoqlaringizni
uzatmang.

Ovqatni ovoz chiqarmay,

pichoqni esa o'ng qo'lda
ushlang.

Qo'llaringizni keng
yoymang,

haddan ziyod engashib
olmang.

Stol tagida

dasturxon chetini
tortmang.

Sanchqini chap
qo'lda,

chapillatmasdan
yeng.

Ovqatlanib bo'lgach,
qoshiq-sanchqilarni
likopchaga qo'yib,

og'iz va qo'llaringizni
salfetkaga arting.

Mehmondorchilik tugagandan keyin mehmonlarni qanday kutib olinsa xuddi shunday kuzatish, **“Biznikiga boringlar”** desa taklif uchun albatta rahmat aytishi zarur.



Barcha o‘quvchilarda ekologik savodxonlikni oshirish maqsadida bayramlarda sharlarni osmonga uchirib yubormaslik, qushlar, hayvonlarga xavf tug‘dirishi mumkinligini esda saqlash, ishlatilgan sharlarni doim chiqindi idishlariga tashlash, sharlar o‘rniga qog‘oz va boshqa ekologik toza materiallardan foydalanish zarurligi tushuntiriladi.



“Mehmon kutish, hissiy ishtirok va vizual vositalar bilan o‘rganish” metodikasi

Mazkur darsda **“Mehmon kutish, hissiy ishtirok va vizual vositalar bilan o‘rganish”** metodikasidan ham foydalaniladi.

Bolalar kichik sahnada mehmon kelishini va ularni kutib olish jarayonini rollarda bajaradi. Mezbon bola, mehmon bola, onasi yoki opasi rollari (o‘qituvchi) tashkil qilinadi.

Qo‘ng‘iroq eshitaladi, mehmon kiradi. Mezbon **“Salom, xush kelibsiz!”**, **“Iltimos, o‘tiring”**, **“Sizga choy quyaymi?”** deb aytadi.

Mehmon **“Rahmat!”**, **“Juda chiroyli uyingiz bor ekan”**, **“Yaxshi kutib oldingiz”** kabi javoblarni aytadi.

Kichik sahna ko‘rinishi natijasida bola mehmondo‘stlikni so‘z va harakat bilan ifodalanishini o‘zida his etadi.

Bolalarda empatiya uyg‘otish maqsadida **“Sizni uyingizga mehmon kelsa, qanday kutib olasiz?”** deb so‘raladi. Undan tashqari **“Agar siz mehmon bo‘lsangiz, qanday muomala sizga yoqadi?”**, **“Mehmonni xursand qilish uchun nima qilamiz?”** deb ham so‘rasangiz bo‘ladi.

Shunda bola o'zini boshqalarning o'rniga qo'yib ko'rishni o'rganadi va mehmondo'stlikning ijobiy ta'sirini anglaydi.

Vizual vositalar bilan mustahkamlashda **“Uyda mehmon kutayotgan bola” rasmi**, **“Mehmonlarga choy quyayotgan ona”**, **“Yuzida tabassum bilan kutib olayotgan bola”** (Emojilar: 😊 🍵 🍰 🍽️) obarzaridan dan foydalaniladi.

Rasmlar orqali bolalarning tasavvuri kengayadi va tushunishi osonlashtiradi.

Amaliy topshiriq (*kichik mehmonxona tashkil qilish*) sifatida sinf burchagida kichik mehmonxona tashkil qilinadi: stol, stakan, sochiq, choynak (o'yinchoqlardan foydalangan holatda). Bolalar bir-birlariga navbat bilan mehmon va mezbob bo'lib xizmat ko'rsatadi.

O'qituvchi yo'nalish beradi, lekin erkin muomala qilishga imkon yaratiladi. She'r yoki qo'shiq bilan yakunlash tavsiya qilinadi. Masalan, oddiy so'zlar bilan:

Mehmon kelsa – quvonaman,

Shirin so'zlar aytaman.

Choy quyaman, kulib turib,

Mehrim bilan kutaman.

Bolalarda mehmondo'stlik mavzusi ijobiy hissiyot bilan mustahkamlanadi.

Ushbu metodikani o'tkazish natijasida:

odob-axloqiy tushunchasini his etib o'rganadi;

bolalar o'zlari harakatda bo'lganlari uchun faollik, mustaqillik ortadi;

mehmondo'stlik – hurmat, e'tibor, mehribonlik kabi ko'plab boshqa fazilatlarni ham o'rgatadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi yordami bilan o'rtoqlarini bayramga taklif qilish uchun taklifnoma tayyorlab kelinadi.

27-dars. Hamkorlik an'analari

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar yordami bilan o'rtoqlarini bayramga taklif qilish uchun tayyorlab kelgan taklifnomasi ko'riladi.

Hamkorlik an'analari barcha uchun birdek tanish bo'lgan mahalla misolida tushuntiriladi. Mahallada insonlar kundalik masalalarni birgalikda hal qiladi, tartib intizomni nazorat qiladi, ko'chat ekadi, hududlarni tozalaydi, bolalar uchun sport maydonchalari qurishadi, tabiiy ofat ro'y bersa birgalikda yengishga kirishishadi, to'y-tomosh, bayramlarni birgalikda nishonlaydi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda **"Hamkorlikda ishlash"** ko'nikmalarini shakllantirish ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va jamiyatga muvaffaqiyatli ijtimoiylashib moslashishi uchun muhim. Bunda:

turli amaliy mashqlar orqali rol o'ynash;

berilgan vazifalarni bo'lishib bajarish;

oddiy va kichik maqsadlar qo'yish;

aniq vazifalar belgilab olish;

hamkorlikda ishlashning ijobiy tomonlarini tushuntirish;

vaziyatlarni kuzatish va to'g'ri tushuntirish;

tashqi yordam vositalaridan foydalanish;

jamo muhitini shakllantirish;

yuzaga kelishi mumkin bo'lgan konfliktlarni boshqarishni o'rgatish zarur.



Bolalarga inson o'zi uddalay oladigan, yolg'iz bajarib bo'lmaydigan ishlar bilan tanishtiriladi.

To'liq tushuncha hosil bo'lishi uchun misollardan foydalaniladi, ya'ni ikki kishi baland to'siqdan yolg'iz o'ta olmasligi, ariq ustida bir o'zi to'sin tashlay olmaydi, uy-joyni ham yolg'iz qurib bo'lmaydi.



Berilgan ma'lumot yuzasidan bolalarda qanday tushuncha qolganligini aniqlash maqsadida qaysi ishlarni bir o'zi bajarishni yoqtirishi, qaysi ishlarni ko'pchilik bajargani yaxshi ekanligi, eng kuchli odamlar ham bir o'zi bajarishni uddalay olmaydigan ishlarga misollar keltirishadi.



Akmal va Madina suhbatida misolida hamkorlik va yordamning farqli tomonlari ochib beriladi. Kimdir og'ir ahvolga tushib qolsa o'sha vaqti yordam so'rasa, unga ko'maklashilsa bu **yordam** ekanligi, biror ishni bir necha kishi birlashib bajarsa bu **hamkorlik** ekanligi tushuntiriladi.





Maktabda o'tkaziladigan tadbirlar, qo'yib berilgan spektakllar hamkorlik deb atalishi amaliy misollar orqali ochib beriladi.

Hamkorlikda biror ish qilish uchun do'st bo'libgina qolmasdan bir maqsad sari birlashib odamlar harakat qilishi ham mumkin.



Hamkorlikda jamoa bo'lib ishlash tushunchasi sport o'yinlari misolida tushuntiriladi. Misol uchun futbol o'yinida darvozabon, hujumchi, himoyachilar ishtirok etib, har birining o'z o'rnini hamda vazifasi bo'ladi. Ular qaysi ishga bo'lgan qobiliyatiga qarab qo'yiladi.

O'quvchilarda jamoada ishlashni kichik yoshidan boshlab shakllantirishga o'rgatish kerak bo'ladi. Buni uchun maktabda jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlar, tadbirlar tashkil qilish, guruhlarda ishlash kabilarni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Shuningdek rasmdagi holat kabi jamoaviy ishlar ko'rsatilib aniq tushuncha hosil qilinadi.



Sinfda, maktabda har bir o'quvchining oilasidagi faol insonlar misolida ishbilarmonlik sifatлари hamda uni rivojlantirish yuzasidan tushunchalar beriladi.

“Birgalikda faoliyat, rolli ishtirok va rag‘batlantirish” metodikasi

Darsda **“Birgalikda faoliyat, rolli ishtirok va rag‘batlantirish”** metodikasi o'tkaziladi. Birgalikda bajariladigan amaliy topshiriq (jamoaviy ish) sifatida bolalar kichik guruhlariga bo'linadi va har bir ishni birgalikda bajarishadi. Birgalikda rasm chizishi mumkin. Har bir bola bir qismini chizadi, oxirida rasm bir butun bo'ladi.

Misol uchun **“Pazandalik o'yi”**ni o'tkazilsa ham bo'ladi. Bunda guruh bo'lib mevali salat tayyorlanadi (*O'yinchoq mevalar bilan*).

Uyni yig'ishtirish sahnasini: Har bir bola uyni bir burchagini yig'ishtiradi, lekin uy hamkorlikda tozalanadi.

Ko'zlangan maqsad bolalar bir-biriga yordam bergan holda umumiy natijaga erishishni tushunadi.

Bolalarni rolli ishtirok (*Dramalashdirilgan o'yin*) etishini ta'minlash maqsadida: **“Bolalar bog'ida biror narsa qurishmoqchi: kim rang olib**

keladi, kim cho'tka, kim suv?", "Birgalikda daraxt ekish" – kim yer kovlaydi, kim suv quyadi? kabi savollardan foydalaniladi.

Bu orqali har kimning roli borligi, hech kimni chetda qoldirmaslik kerakligi his qildiriladi.

Ko'rgazmali vositalar sifatida rasmlar yoki piktogrammalar (**"Birgalikda ishlayotgan bolalar"**, **"Yordam so'rayotgan va yordam berayotgan bola"**, **"Jamoaviy ish – umumiy natija" rasmlari**)dan foydalaniladi.

Rasmlar bolalarda mavzuni ko'rish orqali tushunish va eslab qolishni kuchaytiradi.

Guruhlar o'z ishlarini taqdim etadi. Har bir guruhga yulduzcha, tabassum belgisi yoki **"Hamkor guruh"** medali beriladi.

O'qituvchi motivatsiya berish uchun ularning birgalikda ishlashdagi harakatlarini maqtaydi:

"Sen cho'tka uzatib yordam berding – bu hamkorlik!", "Sizlar birgalikda rasmni chizdingiz – ajoyib!".

Natijada bolalar:

faol ishtirok asosida o'rganiladi;

har bir bola o'z roli orqali o'zini jamoaning bir qismi sifatida his qiladi;

vizual, harakatli va hissiy jihatlarni birlashtiradi;

nutq, muloqot va ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda hamkorlik haqida she'r yoki maqollar topib, keyin ularga mos suratlar topib chiziladi.

28-dars. Kitob –eng yaxshi do‘stimiz

O‘qituvchilar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko‘rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda Vatanimiz oldidagi burchlarimiz haqida yozib kelingan ma’lumotlar tinglanadi, rag‘batlantiriladi.

Maktab darsliklari misolida kitoblar haqida ma’lumotlar, bilim va tarbiya berishi tushuntiriladi.

Darsliklardan tashqari ertaklar yoki hikoyalar, sayohatlar yoki fantastik sarguzashtlar haqida kitoblar bo‘ladi.

Undan tashqari ilm-fan, texnika, tabiat, o‘simliklar va hayvonot olami haqida ilmiy-ommabop kitoblar hamda ensiklopediyalar ham bor ekanligi aytib o‘tiladi.

Kitob haqida umumiy ma’lumot berilgandan keyin ota-onalar yordami bilan Po‘lat Mo‘minning **“Kitob o‘qigan bola”** she’ri yod oldiriladi.

Eslatma: Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarda “Kitob – eng yaxshi do‘st” ko‘nikmalarini shakllantirish bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, tasavvurini boyitish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yordam beradi. Bunda:

- kitobning ahamiyatini barcha o‘quvchilarga oddiy qilib tushuntirish;
- qiziqarli kitoblarni tanlash;
- kitob o‘qish jarayonini qiziqarli tashkil qilish;
- kitobni do‘st sifatida qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- doimiy kitob o‘qish odatini bolaning hayot tarziga olib kirish;
- kitoblar bilan bolaning kunlik faoliyatni boyitish;
- maktabda hamda uyda kitob o‘qish uchun qulay muhit yaratish;
- kitoblarni o‘yin faoliyati bilan birlashtirish;
- shaxsiy rivojlanish rejasini ishlab chiqish kerak.




Dastlab o'qituvchi mantiqiy davom ettirilishi zarur bo'lgan gaplarni o'qib chiqadi, undan keyin bolalarga gaplarni davomi bilan moslashtirish so'raladi. Xato qo'ysa yana boshqasini moslab ko'rish uchun imkoniyat beriladi, toki to'g'risini moslab qo'yganga qadar vaqt beriladi.

Kitobsiz odam	ilimli qiladi, tarbiyalaydi
Kitob insonni	olim odam bilan gaplashgandek bo'lasan
Yaxshi kitob o'qisang	qanotsiz qushga o'xshaydi


Darslikning 87-sahifasidagi QK hamda berilgan rasmlar asosida kitoblar nimadan qilinishi, qanchalik mustahkam, uzoq yillar davomida xizmat qilishi haqida tushuntiriladi.

Kim qadimiy kitoblarni ko'rganligi so'raladi va uzoq yillardan beri insonlar uchun muloqot vositasi sifatida xizmat qilib kelayotganligi aytib o'tiladi.



Buyuk ajdodlarimizga nisbatan faxr va g'urur tuyg'usini yanada oshirish maqsadida Alisher Navoiy haqida qisqacha ta'rif beriladi.

Navoiy Fariduddin Attorning **“Mantiq ut-tayr”** asarini sevib o'qiganligini, keyinchalik aynan shu asarga o'xshagan kitob yozganligini, buyuk inson bo'lishida kitoblar sabab ekanligi tushuntiriladi.



Kitoblar ham ehtiyotsizlik sababli odamlarga o'xshab kasal bo'lib qolishi mumkin. Lekin kitoblar yo'talmaydi, aksirmaydi, isitmasi chiqmaydi, biroq ularni ham davolab turish kerak bo'ladi.


Kitobni davolashda sahifasi yirtilsa, matn ko'rib turishi uchun uni yelimli tasma (skotch) bilan yopishtirish, g'ijimlangan sahifani qog'ozlar

orasiga qo'yib, dazmol bilan tekislash, barmoq va qalam izlarini yumshoq o'chirg'ich bilan o'chirish zarurligi aytiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda kitoblardan to'g'ri foydalanish hamda davolash ko'nikmasini shakllantirish maqsadida birorta shikastlangan, muqovasi yoki sahifasi yirtilgan kitob tuzatiladi.

Buning 5-6 cm kenglikdagi qog'oz yoki mato kesib olib, unga yelim surtiladi va yirtilgan joyga yopishtiriladi. Yaxshi yopishishi uchun ustiga og'irroq jism qo'yiladi.


Undan keyin rasmlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtiriladi.



Barcha ishlar yakunlangandan keyin bolalardan nima uchun kitoblarni avaylash kerakligi yuzasidan fikrlari o'rganiladi.

Kitobni o'qib bo'lgandan keyin uni sinfdosh do'stlarga berish kerak. Hozirgi kunda butun dunyoda ham kitoblar umrini uzaytiradigan, tabiatni asrashga yordam beradigan kitob almashish harakati rivojlanib kelmoqda.

Kitob o'qishning foydali jihatlarini har biri amaliy isboti bilan tushuntirilib, yana nimalarni qo'shish mumkinligi yuzasidan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning fikrlari o'rganiladi.



“Jonlangan kitob, rolli ishtirok, ko‘rgazmali vositalar va amaliy faoliyat” metodikasi

Kitob – eng yaxshi do‘stimiz” darsi bolalarda kitob o‘qishga mehr uyg‘otish, bilimga qiziqish, matnga nisbatan hurmatni shakllantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun bu darsni ko‘rgazmali, hissiy va harakatli metodlar bilan o‘rganish samarali bo‘ladi.

Shuning uchun **“Jonlangan kitob, rolli ishtirok, ko‘rgazmali vositalar va amaliy faoliyat”** metodikasidan foydalaniladi.

O‘qituvchi bolalarga kitoblar **“Jonlanganini”** tasavvur qildiradi - ya’ni go‘yoki kitob gapirayotgandek so‘zlaydi. **“Salom bolajon! Men kitobman. Menda ertaklar, sarguzashtlar, qiziq savollar yashiringan. Meni o‘qisang, do‘st topasan, aqlli bo‘lasan!”** deb gapiradi.

Maqsad bola kitobni faqat buyum deb emas, do‘st sifatida ham qabul qiladi.

Shu o‘rinda **“Kitob do‘stim”** sahnasi tashkil qilinadi. 1-bola: kitobni o‘qiydi, 2-bola: kompyuter yoki telefon rolini o‘ynaydi. 3-bola: kitobning o‘zi (kitob rolida) bo‘ladi. O‘qituvchi: muhokama boshqaruvchisi sifatida ishtirok etadi.

Bola bo‘sh vaqtda kitob o‘qishni yoki telefonda o‘yin o‘ynashni tanlaydi. Kitob unga mehr bilan murojaat qiladi: **“Meni och, men senga hikoyalar aytaman”** bola oxirida kitobni tanlaydi. Shu orqali bola kitobning foydasini hissiy jihatdan tushunadi.

Ko‘rgazmali vositalar (vizual yordamlar) sifatida rasmlar yoki real kitoblar (*Rangli ertak kitoblari, kitob o‘qiyotgan bola rasmi, “Kitob do‘st” - tabassum bilan chizilgan kitob*)dan foydalaniladi. Tasvirlar orqali bolaning diqqatini jalb qilish, kitobga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish kabilar uchun foydali bo‘ladi.

Sinfda **“Kitob burchagi”** tashkil qilinadi. Bolalar o‘z sevimli kitoblarini olib kelib, boshqa tengdoshlariga tavsiya qilishadi.

“Mening do‘stim kitob” mavzusida rasm chizish topshirig‘i beriladi. Bola kitobga nisbatan shaxsiy his-tuyg‘u bilan bog‘lanadi, kitobni qadrlaydi.

Bu metodikaning afzalliklari:

bola kitobni hayotiy do‘st sifatida qabul qiladi;

harakatli o‘yin, rol va rasm orqali turli sezgi yo‘llari orqali ta‘lim beriladi;

nutq, tasavvur, tinglash va fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi;

kitobga nisbatan shaxsiy munosabat shakllanadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda **“Do‘stimning sevimli kitobi”** mavzusida tadqiqot o‘tkaziladi.

29-dars. Bizga telefon, televizor, kompyuter nima uchun kerak?

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda **“Do'stimning sevimli kitobi”** mavzusida o'tkazgan tadqiqoti ko'riladi.

Barcha o'quvchilar bilan telefon, televizor, kompyuter haqida qisqa suhbat tashkil qilinadi va hozirgi kunda barcha joylarda ko'rib turganligimiz eslatiladi.

Har kuni aloqa va axborot uzatish vositalaridan foydalanishimiz, pochta, telefon, televizor, gazeta-jurnallar, internet insonlarga hayot davomida yordam berishi, dunyoni turli nuqtalaridagi odamlar bilan xabardor bo'lish, chet eldagi qarindoshlar bilan ko'rishib gaplashish kabi imkoniyatlarni berishi amaliy misollar orqali ko'rsatib tushuntiriladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga telefon, televizor, kompyuterning foydali jihatlarini o'rgatish bolalarni ulardan to'g'ri foydalanish qoidalarini o'rgatish, ularning texnologiyalardan foydalangan holda o'z-o'zini rivojlantirishiga va ulardan oqilona foydalanishiga yordam beradi. Buning uchun:

har bir texnologiyaning asosiy maqsadini tushuntirish;

barcha foydali jihatlarini ajratib ko'rsatish;

zamonaviy texnologiyalardan to'g'ri ishlatishni o'rgatish;

amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatish;

barcha texnologiyalardan mas'uliyatli bo'lib foydalanishni tushuntirish;

texnologiyalarning real hayotdagi ahamiyatini ko'rsatib berish;

boladagi yaxshi odatlarni shakllantirishni maqsad qilib olish zarur.



Barcha bolalar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham berilgan rasmdagilarni qaysi biri o'tmishdagi, qaysilari zamonaviy ekanligini aytishi lozim.

Shundan keyin ulardan foydalanish, tashqi ko'rinishidagi o'zgarishlar, ovoz va sifatning ta'siri, zamonaviy telefon, televizor va kompyuterlarning bir va har xil tomonlari ochib beriladi.

Sinfdoşlar bilan muhokama qilishdan oldin bolalarga foydalanish uchun berilgan soʻzlarning maʼnosi hamda tarqatma materiallardagi rasmlari bilan tanishtiriladi. Undan keyin esa, qadimda va bugun odamlar bir-biri bilan qanday aloqa qilganligi, boshqa joydagi doʻstlar bilan aloqa qilish, qanday qilib muhim voqealardan xabar topganligi yuzasidan muhokama tashkil qilinadi.

Bolalarga fakt va fikr haqida aniq misollar yordamida tushuntiriladi. Osmondagi quyosh bu fakt. Fikr esa insonni nimagadir munosabati ekanligi aytib oʻtiladi.

Berilgan rasmlar asosida kompyuterdan qanday maqsadlarda foydalanish yuzasidan maʼlumot beriladi. shuningdek alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga qoʻshimcha fikrlarini qoʻshish imkoniyati beriladi.



Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar qanday tushunganligini bilish maqsadida har bir rasmda berilgan maʼlumotlar qogʻoz parchalari yordamida yashirilib rasm nima haqida ekanligi soʻrab koʻriladi.

Berilgan rasmdagi holat kabi hozirgi kunda kompyuter hamda internetning inson hayotida tutgan o'rne, afzalliklari, ulardan foydalanish qoidalarini haqida amaliy misollar orqali tushuntiriladi.



O'qituvchi yordamida kichik guruhlarda **“Kompyuter va telefon sog'liqqa zararsiz foydalanish”** mavzusida eslatma tuziladi. Bu jarayonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham qisqa qisqa vazifalar beriladi.

Kompyuter va telefon sog'liqqa zararsiz foydalanish	
Qoidalar hamda tavsiyalar	Keltiradigan foydali jihatlari

“Taqqimot, rolli o'yin, vizual farqlash, foydali va zararli ishlatishni ajratish” metodikasi

Telefon, televizor, kompyuter nima uchun kerak?” darsi bolalarda zamonaviy texnologiyalar haqida tushunchalar berish, ularning foydali va zararli jihatlari haqida fikrlash, mas'uliyat bilan foydalanish odatini shakllantirish uchun juda muhimdir. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun bu darsni sodda, ko'rgazmali va jonli metodlar orqali tushuntirish samarali bo'ladi.

Bu uchun **“Taqqimot, rolli o'yin, vizual farqlash, foydali va zararli ishlatishni ajratish”** metodikasidan foydalaniladi.

O'qituvchi bolalarga har bir texnologiyaning hayotimizdagi vazifasini tushuntiradi:

telefon: ota-onalarga qo'ng'iroq qilish, do'stlarim bilan gaplashish, vaqtni bilish;

televizor: yangiliklar, ertaklar, tabiat haqida ko'rsatuvlar tomosha qilish;

kompyuter: o'yinlar emas, balki rasm chizish, savod o'rganish, ma'lumot topish uchun foydalanilishi tushuntiriladi. Bu orqali bolalarda texnik vositalarning foydali jihatlari haqida boshlang'ich tushuncha shakllanadi.

Rolli sahna (*tovushli sahna*) tashkil qilinadi. **3 nafar** bola: biri telefon bo'lib gapiradi, biri televizor, biri esa kompyuter bo'ladi.

Har biri o'z vazifasi haqida gapiradi: **“Men – telefonman, agar meni ko'p ishlatsang, ko'zing charchaydi”, “Men – televizorman, vaqtida qarasang, ko'p yangilik o'rganasan”, “Men – kompyuterman, agar faqat o'yin uchun ishlatsang, foydali bo'lmayman”.**

Aytib o'tilgan vazifalar orqali bola texnologik vositalar bilan hissiy bog'lanadi va foyda-zararni anglaydi.

Vizual farqlashni o'rgatish maqsadida **“Foydali – zararli”** o'yini o'tkaziladi. O'qituvchi turli rasmlar kartochkalarini ko'rsatadi. **“Bola onasiga qo'ng'iroq qilayapti”, “Savod o'rganayotgan bola”, “Televizorda tabiat ko'rsatuv”** va hokazolar.

Shuningdek, **“Yotgancha telefon o'ynayotgan bola”, “Ko'p o'tirib kompyuterda o'yin o'ynash”, “Televizor oldida uxlab qolgan bola”** obrazi tasvirlangan kartochkalardan foydalanadi. Bolalar har bir rasmni foydali yoki zararli deb ajratadi (*yashil va qizil rangli doiralar orqali*). Natijada vizual ko'mak orqali bolalarda fikrlash, tanlash va tahlil qilish odati rivojlanadi.

Bu metodikaning foydali jihatlari:

har bir vosita haqida to'g'ri, hayotiy tushuncha shakllanadi;

foydali va zararli jihatlarni farqlash ko'nikmasi rivojlanadi;

nutq, tafakkur, tanlov qilish, hissiy eslab qolish faoliyatlari uyg'unlashadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda uch kun ichida kompyuter yoki telefonda o'yin o'ynash uchun qancha vaqt ketganligini hisoblab keladi. Darsda muhokama qilingan qoidalarga amal qilganligiga ahamiyat beriladi.

30-31-dars. Madaniyat va ta'lim

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda darsda muhokama qilingan qoidalarga amal qilib uch kun ichida kompyuter yoki telefonda o'yin o'ynash uchun qancha vaqt ketganligini hisoblab kelinganligi muhokama qilinadi.

Dastlab serquyosh O'zbekistonimizda ta'lim doim tarbiya bilan birgalikda olib borilishi aytib o'tiladi.

Barcha o'quvchilarga o'zining maktablari misolida maktabning vazifalari, ta'lim muassasalari haqida tushuncha beriladi.

Undan keyin kutubxona, muzey, teatr, konsert va ko'rgazmali zallar, sirk madaniyat muassasalari hisoblanishi aytiladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda dars davomida topshiriqlarni bajarish vaqtini ko'proq qilish (agar bu matn uchun savollar bo'lsa, faqat 3 tagacha savollarni muhokama qilishingiz mumkin), shuningdek, matnni to'liq o'qimaslik tavsiya etiladi, bolalar juda tez charchashini inobatga olish zarur.

Savollarga javob berganda, respondentga o'ylash uchun biroz ko'proq vaqt berilishi kerak (bolalarning reaksiyasi sekinlashish holati kuzatilishi mumkin).

Yozma ish, testlar ancha vaqt talab etishini inobatga olish zarur (o'qituvchining yordami kerak, daftarni, qalam topish, uni ochish va hokazo).

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga Kitob—eng yaxshi do'st tushunchasini shakllantirish ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, tasavvurlarini boyitadi va shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi.

Soddalashtirilgan hikoyalar yoki qisqa matnli kitoblardan foydalanish, kitob bilan muloqot qilish, jamoaviy o'qish faoliyatlari tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Yoshlar ijod saroyi



Berdag nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti



O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri



I.V.Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyi

Rasmda berilgan ta'lim va madaniyat muassasalari ko'rib chiqilgandan keyin shuningdek alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qay darajada tushunganligini aniqlash maqsadida o'zi yashaydigan viloyatdagi shu kabi muassasalarni aytib o'tishi zarur.

Darslikning 95-sahifasidagi rasmdan foydalanib muzeylar ham bir-biridan farq qilishi, ularning ham tarixiy, san'at, qo'g'irchoq, texnologiya kabilarga bo'linishi tushuntiriladi.



Agar bolalar shu vaqtgacha muzeyga bormagan bo'lsa ota-onasiga muzeyga olib borish tavsiya qilinadi. Misol uchun o'lkashunoslik muzeyiga borib, biror viloyat, tuman yoki shaharning o'tmishi va buguni haqida hikoya qiluvchi eksponatlar haqida ma'lumot olib kelinadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar eshitgandan ko'ra ko'rsa yoki qo'li bilan ushlasa ko'proq ma'lumot oladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda muzey yoki ko'rgazmaga borganligi haqida qisqacha hikoya yozib keladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda muzey yoki ko'rgazmaga borib yozib kelgan qisqa hikoyasi o'qib chiqiladi.

Darslikning 96-97-sahifasidagi madaniyat muassasalari rasmlar hamda unga berilgan ta'riflar asosida har biri bilan alohida alohida ishlanadi. O'quvchilar yodida qolishi uchun har birining muhim hamda yodda qolarli tomonlari bilan tushuntiriladi.

Madaniyat muassasalari barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham tushunganligini aniqlash maqsadida maktabdagi ijod zali qaysi biriga o'xshash ekanligini aytib berishi kerak. Bolalarga qulay bo'lishi uchun har bir rasmda berilgan madaniyat muassasasi haqida atroflicha ma'lumot berib, ichki ko'rinishi, nima uchun mo'ljallanganligi haqida aytib turishi kerak.

Dars jarayonini qiziqarli qilish maqsadida foydalanish uchun berilgan so'zlar asosida biror qiziqarli voqea gapirib beriladi. Har bir foydalanish uchun berilgan so'zlar nima uchun va nima maqsadda tashkil qilinishi tushuntirib o'tiladi.

Teatr yoki konsert zalida o'zini tutish odobini barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushuntirish maqsadida sinfda kichik sahna ko'rinishi tashkil qilinadi. Bunda bir necha o'quvchilar berilgan qoidalarini amaliy bajarib ko'rsatiladi, shu jarayonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham ishtirok etishini ta'minlanishi kerak. Agar teatr yoki konsertga borilsa kirish qismida eslatmalar yozib qo'yilganligi ko'z tushishi aytiladi.

	Akmal va Madina suhbatida misolida maktab ijod zalida ham teatrdan qoidalar borligi, gohida tomosha vaqtida gapirishga zarurat tug'ilsada savol-javob boshlagunga qadar jim turish zarurligi tushuntiriladi. Yonimizdagilarga, san'atkorlarga xalaqit bermasligimiz kerakligi aytib o'tiladi.	
---	---	---

Berilgan topshiriqqa javob berish uchun minbarga chiqarilgan o'quvchini qolgan tengdoshlari tomonidan qanday qo'llab-quvvatlanishi, hurmat ko'rsatilishi diqqat bilan kuzatiladi. Jarayon yakunlangandan keyin o'qituvchi yordami bilan tinglovchilar uchun tavsiyalar ro'yxati shakllantiriladi.

“Rolli ishtirok” metodikasi

“Madaniyat va ta'lim” mavzusi bolalarga odob-axloq, urf-odatlar, o'zini tutish qoidalarini va ta'limning ahamiyatini tushuntirish uchun muhim hisoblanadi. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun mavzu ko'rgazmali, hissiy, va hayotiy misollar asosida o'tilsa, yanada yaxshi tushuniladi.

Shu maqsadda **“Rolli ishtirok”** metodikasidan foydalaniladi. Bola maktabga kirayotganda salom berib, oyoq kiyimini tozalab kiradi. O‘qituvchi dars o‘tayotganda bola tinglaydi, savol berganda qo‘l ko‘tarib javob beradi. O‘zidan kattalarga yo‘l beradi, odobli muomala qiladi.

Bolalarga ikki xil holat rasmi beriladi:

birinchisi - madaniy va to‘g‘ri harakat: salom berish, navbat kutish, darsga tayyorlik;

ikkinchisi - odobsiz yoki e‘tiborsiz holat: baqirish, navbatni buzish, darsga kechikish.

Bolalar rasmlarga qarab **“Madaniyatli”** yoki **“Madaniyatsiz”** deb ajratadi.

Undan keyin bolalarda taqqoslash orqali **“Bu madaniyatli bo‘ldimi?”** deb nomlangan o‘yin o‘tkaziladi. O‘qituvchi hayotiy vaziyatlarni aytadi:

“Bola do‘kon navbatida turibdi” - madaniyatli bo‘ldimi?;

“Ustozni ko‘rib salom berdi” - bu madaniyatli xulq-atvormi?;

Bolalar **“Ha”** yoki **“Yo‘q”** kartochkasini ko‘rsatib javob berishadi.

Bu orqali bolaning e‘tibor berish, eshitish, tanlash va tafakkur qilish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Dars so‘nggida eng ko‘p madaniyatli so‘z ishlatgan, navbat kutgan, qo‘l ko‘targan bolalar alohida maqto‘v -yulduzcha bilan taqdirlanadi.

Bu metodikaning afzalliklari:

bevosita madaniy xulq-atvorni ko‘rish, tushunish va qo‘llash imkonini beradi;

nutq, eshitish, muloqotda bo‘lish, tafakkur qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda teatr, sirkka, konsert yoki ko‘rgazmaga sayohat mavzusida rasmlar chiziladi.

32-dars. Ochiq osmon ostidagi muzey

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda teatr, sirkka, konsert yoki ko'rgazmaga sayohat mavzusida chizib kelgan rasmlari ko'rib chiqiladi.

Darslikning 99-sahifasida berilgan har bir rasm alohida alohida qilib chiqariladi. Dastlab rasmlardan qaysi birini bilishi, qaysilarini hech qachon ko'rmaganlari so'raladi. Ularning bilgan ma'lumotlariga bog'lagan holatda yangi ma'lumotlar beriladi. bilmaydigan hayvonlari bolalarning yodida qolishi uchun ularning ovozlari, katta kichikligi, foydali jihatlari aytib o'tiladi.

Eslatma: Ochiq osmon ostidagi muzeylarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga qiziqarli va samarali o'quv muhiti yaratadi. Ta'lim olishiga va jamiyatga moslashishiga foydali jihatlari bilan ajralib turadi. Buning uchun:

tabiiy va erkin muhitni shakllantirish;
ta'limning ko'rgazmali shaklini tashkil qilish;
turli his-tuyg'ularni, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish;
har xil mavzularni qamrab olish;
harakat va sezgi faoliyatini rivojlantirish hamda qiziqarli, esda qolarli ta'lim muhitini yaratish;
tasavvurni kengaytirish;
mustaqillilik va mas'uliyatlilikni oshirish
amaliy maslahatlar berish
maqsadga muvofiq.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga **“Hayvonot bog'i”** haqida ma'lumot berish uchun ota-onasi bilan birgalikda bog'ga olib borish yoki imkoniyat boricha video materiallar asosida tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Berilgan ma'lumotlarni bolalar qay darajada qabul qilganligini aniqlash maqsadida tarqatma shaklda savollar beriladi va guruh bo'lib berilgan savollarga javob beriladi.



Berilgan rasmlar orqali bolalarga hayvonlar kuzatish jarayonida o'rnatilgan tartib qoidalarga amal qilish va shu orqali tabiatga g'amxo'rlikka o'z hisssasi qo'shishi mumkinligi tushuntiriladi.

O'rnatilgan qoidalarni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar tushunishi uchun har birini alohida ko'rsatib aniq jarayon hamda hayvonlarga bog'lab ko'rsatmalar beriladi.

	Akmal va Madina suhbatida misolida hayvonot bog'i tabiatni yaxshi ko'ruvchilar uchun jonli muzey bo'lib xizmat qilishi, u yerda ham o'ziga yarasha tartib-qoidalari mavjudligi va unga barcha amal qilishi zarurligi aytib o'tiladi. Eslatma tarzida ushbu qoidalar hayvonot bog'ining har bir burchagida osib qo'yilganligi ta'kidlanadi.	
---	--	---

Ko'plab davlatlar yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlarni asrab qolish bilan shug'ullanish maqsadida **"Xalqaro Qizil kitob"** yaratilgan. Unda hayvonlar va o'simliklarning noyob, yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlari ro'yxati keltirilganligi tushuntirib beriladi. Bolalar ham bilishi uchun birorta "Qizil kitob" namuna sifatida ko'rsatiladi.

"Ochiq osmon ostidagi muzeyga sayohat" metodikasi

Mazkur dars yanada qiziqarli bo'lishi uchun **"Ochiq osmon ostidagi muzeyga sayohat"** nomli metodikasidan foydalaniladi. Metodikadan ko'zlangan maqsad bolalarga muzey nima ekanligini, ochiq osmon ostida joylashgan eksponatlar qanday bo'lishini tushuntirish va qiziqish uyg'otishdir.

Dastlab **"Muzey nima?"** (3 daqiqa) mavzusida suhbat qilinadi. O'qituvchi oddiy so'zlar bilan tushuntiradi:

"Muzey" – bu qadimiy narsalar saqlanadigan joy;

ba'zan bu joy bino ichida bo'ladi, ba'zida ochiq havoda – tashqarida;

"Ochiq osmon ostidagi muzey" – bu tashqarida joylashgan katta eksponatlar (*Masalan: tanklar, samolyotlar, haykallar*) ko'rsatiladigan joy.

Shundan keyin bolalarga rasmlar ko'rsatiladi: samolyot, ochilgan eski mashinalar, haykallar bog'i. Har bir rasmga alohida savol beriladi:

bu qayerda turibdi?

bu nimaga o'xshaydi?

bu nimani eslatadi?

Mazkur rasm va savollar asosida sinfda kichik **"Muzey yo'lagi"** yaratiladi. O'qituvchi gid ro'lida: **"Bu yerda qadimiy mashina turibdi"**. Bolalar **"Sayr"** qiladi, har biri nimani ko'rayotganini aytib beradi.

Undan keyin hamma bola **"Men o'z muzeyimni tuzaman"** (5 daqiqa) mavzusida gapirib beradi. Bolalarga oddiy rasm bilan chizib ko'rsatish imkoniyati ham beriladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda **"Qizil kitob"**ga kiritilgan biror hayvon yoki o'simlik haqida hikoya tayyorlab kelinadi.

33-dars. Jamoat joylarida bo'lish odobi

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda **“Qizil kitob”**ga kiritilgan biror hayvon yoki o'simlik haqida tayyorlab kelgan hikoyasi tinglanadi, rag'batlantiriladi.

Darslikning 103-sahifasida berilgan rasm asosida jamoat joylari, qanday jamoat joylarini bilishi, u yerdagi tartib qoidalar bilan tanishtiriladi.

Maktab, bozor, pochta, qahvaxona, sport zali, transport, kutubxona va do'kon kabilar kirishi aytiladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga jamoat joylarida bo'lish odobini o'rgatishda:

bolalarning shaxsiy ehtiyojlari va imkoniyatlarini aniqlash;

oddiy va tushunarli tushuntirish yo'llarini topish;

jamoat joylarida qanday harakat qilish kerakligini o'yin va rol o'ynash orqali o'rgatish;

har safar bolaning to'g'ri xatti-harakatlariga ijobiy ta'lim berish va rag'batlantirish;

rasm yoki piktogrammalar yordamida jamoat joylarida o'zini tutish qoidalarini intellektual qiyinchiliklarga ega bolalarga tushuntirishda vizual yordamlardan foydalanish;

har safar bir qoidaga e'tibor qaratish va asta-sekin yangi qoidalarni qo'shib qadam-baqadam o'rgatish;



Berilgan ma'lumotlar hamda rasmlardan foydalanib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan qanday jamoat joylariga borganligini aytib bera olishi kerak.

Jamoat joylarida qaysi tartib qoidalarga amal qilish zarurligini tushuntirishdagi darslikning 104-sahifasida berilgan har bir jumlaning ma'nosiga alohida to'xtalib amaliy bajarib ko'rsatiladi.

Mazkur qoidalar haqida tushuntirilgandan keyin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar qoidalardan qaysi biri to'g'ri qaysi biri noto'g'ri ekanligini tengdoshlari yordami bilan aytib beradi.

Jamoat joylarida o'rnatilgan qoidalarga nima sababdan amal qilish zarurligi Akbar bilan Saidni istirohat bog'iga chiqib qog'oz samolyot o'ynagani haqidagi hikoya bilan mustahkamlanadi.

Unda Akbar bilan Said samolyotini uzoqroqqa uchirish maqsadida o'rindiqning ustiga chiqib uchirgani, biroz vaqt o'tishi bilan bir buvi nabirasi bilan keyin bo'sh o'rindiqqa o'tiradi. Shunda nevara buvisiga o'rindiq loy ekanligini, natijada ko'ylagi kir bo'lganligini aytadi. Bolalar uyalib qolishadi.

Zina va yo'laklarda keksalar va kichik bolalarni o'tkazib yuborish	Keksalarga, yosh bolali va homilador ayollarga joy berish
Xushmuomala, e'tiborli bo'lish	Telefonda baland ovozda gaplashish
Esnaganda, yo'tal tutganda va aksirganda og'izni yopish	Yuklarni tashishda boshqalarga xalaqit bermaslik
Odamlarni itarib, turtib oldinga o'tish	Gapirgan odamga teskari o'girilib olish
Bexosdan birovning oyog'ini bosib olsa, uzr so'rash	Odob bilan gaplashish
Kimdir yoki nimadir haqida qo'pol yoki yomon so'z aytish	Jamoat mulkini va yashil hududlarni asrash



“Hurmatli bo‘laylik!” metodikasi

Mazkur dars alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lishi uchun **“Hurmatli bo'laylik!”** metodikasidan foydalaniladi. Ko'zlangan maqsad bolalarda jamoat joylarida odobli, xushmuomala va tartibli bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

O'qituvchi oddiy so'zlar bilan **“Jamoat joylari”** – bu hammaga ochiq bo'lgan bog', do'kon, avtobus, kutubxona va hokazolardir. Bu yerda boshqa odamlar ham bo'lishini inobatga olib odobli bo'lishimiz kerak.

Bola kutubxonada baqiryapti, avtobusda navbat kutib turibdi, do'konda narsani tortib olyapti kabi rasmlı muhokama qilinadi va **“To'g'rimi yoki noto'g'rimi?”** (5 daqiqa) deb savol beriladi. Har bir rasmga bolalar **“To'g'ri”** yoki **“Noto'g'ri”** deb baho berishadi.

O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi va ularga vazifa beriladi:

1-guruh: avtobusga chiqadi;

2-guruh: kutubxonada;

3-guruh: do'konda.

Har bir guruh odobli harakat qiladi: navbat kutadi, past ovozda gapiradi, boshqaga to'g'ri muomala qilinadi.

Yanada tushunarli bo'lishi uchun **“Men nima qilaman?”** (3 daqiqa) kartochkali o'yini tashkil qilinadi.

Kutubxonada baland ovozda gapirsa bo'ladimi?

Navbat kutmay ketsam bo'ladimi?

Bola: **“Yo'q, men kutaman”** yoki **“Men sekin gapiraman”** deb javob berishi kerak bo'ladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan o'tgan haftada qaysi jamoat joyida bo'lganligi va qayerda bo'lish ko'proq yoqishi haqida aytib berishi kerak.

34-dars. Takrorlash

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda o'tgan haftada qaysi jamoat joyida bo'lganligi va qayerda bo'lish ko'proq yoqishi haqida aytib beradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga **“Yo'lto'sar bergan saboq”** hikoyasi orqali inson hayoti davomida qancha bilim olsa, o'rgansa barchasini xotirasiga joylashi zarurligi tushuntiriladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga jamoat joylarida bo'lish odobini o'rgatishda:

jamoat joylarida boshqa odamlar bilan qanday muloqot qilishni o'rgatish; bolani jamoat joylariga olib borib, real sharoitda odob qoidalarini qo'llashda sabrli bo'lib amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish;

agar bola qoidalarni to'liq tushunmasa yoki ularni bajarishda qiynalsa, unga vaqt berish va qo'llab-quvvatlash;

sabrsizlik yoki tanbeh o'rniga yordam beruvchi maslahatlar berish;

doim tushunmovchilikka tayyor bo'ling.



O'rganilgan ma'lumotlarni inson butun umri davomida eng mustahkam saqlanadigan joy bu uning xotirasi ekanligi, qog'oz va boshqa buyumlarda saqlash bu ma'lum muddat davom etishi aytiladi. Shuningdek, o'rgangan bilimlarini xotirasida saqlash bilan bir qatorda bilmaganlarga ham o'rgatishi lozimligi ta'kidlab o'tiladi.

Dars yuzasidan berilgan testlar orqali bolalarda nima uchun mehmonga borish yoki chaqirish, ularni kuzatish, hamkorlikning foydali tomonlari, ijtimoiy odob qoidalarini ishlab chiqilganligi yuzasidan o'rganib chiqqan dars mashg'ulotlari takrorlab olinadi.

Javoblarning qaysi biri to'g'ri qaysilari noto'g'ri ekanligi har biriga to'xtalib tushuntiriladi va ularning inson hayotida tutgan o'zni beqiyosligi aytiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda milliy qadriyatlarimiz, ur-odatlarimiz, xalq o'yinlarimiz haqida qisqacha ma'lumot berish maqsadida o'zbek xalq o'yinlari haqida aytib beriladi.

Berilgan **“Oq terakmi, ko'k terak”**, **“Kim oladi shuginani”**, **“Arqon tortish”** o'yinlari kabilar bizga o'tmishdan yetib kelganligi, qiziqarliligi, bolalarda o'z qobiliyat va iste'dodlarini namoyish etishi, do'stlashishi, mag'lubiyatdan xulosa chiqarishi, g'alabaga intilishi, raqibga hurmat bilan munosabatda o'rgatiladi.

Darslikda berilgan dunyoning turli mamlakatlaridagi bolalar milliy o'yinlari bilan tanishtirish orqali o'zbek milliy o'yinlaridan boshqa qiziqarli o'yinlar bilan tanishtirish imkoni beriladi.

Shundan kelib chiqib boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari bilan tanishish birgalikda o'yin o'ynash, do'stlashish niyatlari paydo bo'ladi. O'yinlarning bolalar ta'lim-tarbiyasidagi tutgan o'rni, xotirasi, fikrlash doirasiga ijobiy ta'sir qilishi berilgan o'yinlardan bir nechtasini o'ynab ko'rish orqali isbotlab ko'rsatiladi.

O'qituvchilar uchun tavsiyalar

Inklyuziv ta'limni tashkil etish insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, bag'rikenglik, oshkoralik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi.

Shunday ekan umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim sinflarining tashkil etilishi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kelajagiga ijobiy ta'sir etish bilan bir qatorda boshqa (sog'lom) bolalarning ham hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi degan savol tug'ilishi mumkin.

o'zlariga o'xshamagan tengdoshlari, ularning hayoti, ehtiyojlarini his qilishni o'rganadi;

tengdoshlariga nisbatan g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;

qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish, insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;

o'quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklangan shaxslarga pozitiv munosabat, o'zaro hurmat ruhi shakllanadi;

yordamga muhtoj shaxslarga e'tiborsizlik qilmaydigan o'quvchilarga aylanadi;

shukronalik hissi uyg'onadi;

o'zini boshqalarga yordami tegayotganligidan faxrlanadi.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarga esa:

o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi;

mustaqil harakatlanish, birgalikda yurish, hamkorlikda ishlash imkoniyati yuzaga keladi;

dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;

o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;

o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;

oldin sezilmagan imkoniyatlari yuzaga chiqadi;

yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi;

ijtimoiy hayotga moslashadi.

Hozirgi kunda innovatsion bilim, malaka hamda ko'nikmalar bilan qurollangan o'qituvchilar ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda tashqi ko'rinish madaniyatiga e'tibor bilan qarashi, o'zida zamon talabi darajasidagi tashqi qiyofani odat qilishi maqsadga muvofiq. O'qituvchi har doim o'quvchilar bilan bir qatorda ijtimoiy jamiyatning har qanday sohasida faoliyat olib borayotgan insonlarga o'rnak bo'lishi zamon talabi darajasi deb qarashi zarur.

O'qituvchining tashqi qiyofasi ya'ni, kiyinish uslubi ko'pincha uning ichki dunyosi, madaniyatini aks ettiradi. Toza, ozoda, qulay, ko'zga tashlanmaydigan, kiyinish madaniyatiga amal qilib yursa o'quvchilar uchun ibrat bo'la oladi. O'qituvchining butun qiyofasi bolalarni o'quv jarayonidan chalg'itmasligi ularning o'z oldiga qo'yilgan asosiy talablari sirasiga kiradi.

O'qituvchining nutqi hamma vaqt o'zbek adabiy tilini o'zida aks ettiruvchi, zamonaviy texnika, texnologiya, xalqaro qabul qilingan terminologiyalardan to'g'ri va o'rinli qo'llashi hozirgi zamon talabi darajasida

bo'lishi lozim. Agar o'tiladigan dars mashg'uloti mavzusi o'qish, hikoya, xalq o'g'itlari, maqol, tez aytish bo'lsa, obrazga kirib, bolaning qalbiga kirib boradigan darajada qiziqтира olishi talab etiladi.

Mashg'ulot mavzusi og'zaki bayon etish, tushuntirishdan iborat bo'lsa, nutq tekis, ravon, bir maromda va osoyishta bo'lishi maqsadga muvofiq. Butun jarayonda o'qituvchi o'z nutqining grammatik va leksik savodxonligiga e'tibor bergan holda sustkashlikka yo'l qo'ymasdan, kerakli o'rinda obrazli qilib, o'quvchilar havas bilan taqlid qiladigan darajada to'g'ri til ko'nikmalariga e'tibor qaratilishi lozim.

Shu o'rinda barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning nutqni to'g'ri va savodli egallashi uchun aynan o'qituvchiga taqlid qilish orqali amalga oshirilishi hisobga olinishi zarur. Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi yuqori darajada xushmuomalalik va sabr-toqatni namoyon qilishi, qo'pollik va hurmatsizlikka mutlaqo yo'l qo'ymasligi talab qilinadi.

O'quvchi bilan muloqot do'stona ruhda, optimistik kayfiyatda bo'lishi talab etiladi. O'qituvchining bolalarga berayotgan har qanday ma'lumotida insonparvarlik, samimiylilik aks etib turishi, inklyuziv ta'limda faoliyat olib borayotgan bunday o'qituvchi bilan bir marta muloqotga kirishgan shaxs (ota, ona, bola) da u bilan yana suhbatlashish, muammolari bilan dardlashish istagi paydo bo'ladigan bo'lishi maqsadga muvofiq. Shunda ko'zlangan maqsadga tez va samarali erishish mumkin.

Inklyuziv ta'limda faoliyat olib boradigan o'qituvchi to'g'ridan-to'g'ri muloqot qobiliyatiga, gnostik ko'nikma, didaktik mahorat, o'yin qobiliyati, tashkiliy ko'nikmalar, kommunikativ-rejissyorlik, prognostik va aks ettirish qobiliyatlari hamda ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Undan tashqari doimiy ravishda motivatsion ko'nikmalarni ham rivojlantirib borishi, ya'ni, o'quv jarayonida bolalar nima o'rganayotganlarini va bu qanday yordam berishi mumkinligini anglashi, ularning istak-xohishlarini aniqlay olishi lozim.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qituvchi tomonidan darsda o'qish vaqtida darslikni ochishda, kerakli sahifani topishda, qayerda o'qishimizni ko'rsatishda yordam berilishi kerak. Bunday holatlar nafaqat inklyuziv sinflarda balki barcha sinflarda ham uchraydi. Bu holda bola ba'zi sabablarga ko'ra darsning borishini kuzatishni istamaydi va tanqidga uchraydi. Shuning uchun ularga yordam berilishi kerak.

Dars davomida siz topshiriqlarni bajarish vaqtini ko'proq qilishingiz kerak (agar bu matn uchun savollar bo'lsa, unda siz 3 ta yoki 4 ta savollarni muhokama qilishingiz mumkin). Shuningdek, matnni to'liq o'qimaslik tavsiya etiladi, chunki bolalar juda tez charchaydi.

Savollarga javob berganda, respondentga o'ylash uchun biroz ko'proq vaqt berilishi kerak (bolalarning reaksiyasi sekinlashish holati kuzatilishi mumkin). Yozma ish, testlar ancha vaqt talab etilishi (o'qituvchining yordami kerak, ya'ni, daftar toping, daftarni oching, daftar, qalam toping va h.k.) inobatga olib bunday holatda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun vazifani quyidagicha shakllantirishingiz kerak:

topshiriq og'zaki va yozma ravishda tuzilishi kerak;
vazifa qisqa, aniq, bitta harakatni ifodalaydigan, bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi;
vazifalarni shakllantirishda yakuniy mahsulotni ko'rsating (tayyor matn, matematik muammoning yechimi va hokazo);
vazifani bola bilan birga shakllantirish;
bolaga ishni tugatish imkoniyatini berish;
bolani to'g'ri baholash ya'ni bolaning salbiy tomonini emas, balki uning yaxshi xulq-atvorini ta'kidlashga harakat qilish;
intizomiy kichik buzilishlariga e'tibor bermaslik;
bola yaxshi baho olishi uchun topshiriqni qayta yozishiga, o'qishiga ijozat berish (keyinchalik qayta ishlangan ish uchun bahoni hisoblash);
bolani baholashda iqtidori, imkoniyatidan kelib chiqqan holda baholash tizimidan foydalanish;
agar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola butun sinf oldida javob berishi qiyin bo'lsa, unda unga tugallangan topshiriqni kichik guruhlarda o'rtoqlarining yordamidan foydalanish imkoniyati berilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 1-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2024-yil.
- 2.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 2-sinf darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2022-yil.
- 3.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 3-sinf darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2023-yil.
- 4.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 4-sinf darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2023-yil.
- 5.** S.Mo'minov, Sh.Axmedova, G.Alimova "Inklyuziv sinfdagi maxsus o'qituvchining alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodikasi" nomli metodik qo'llanma, Toshkent, 2022-yil.
- 6.** S.Mo'minov, G.Alimova "Mashg'ulotlarda interfaol usullar" metodik qo'llanma, Toshkent, 2025-yil.
- 7.** G.Alimova, S.Mo'minov "Inklyuziv ta'limda korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlar" metodik qo'llanma, Toshkent, 2025-yil.

2-sinf

Kirish.....	3
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sinflarida joylashtirish.....	5
1-dars. Vatanim -faxrim.....	8
2-3-dars. Maktab nima uchun kerak?.....	12
4-darslar. O'qituvchi va o'quvchilar.....	17
5-6-darslar. Maktabga yo'l.....	21
7-dars. Jamoat transportida.....	26
8-dars. Takrorlash.....	29
9-10dars. Men va mening sinfdosh do'stlarim.....	30
11-dars. Bir-birimizni tushunishni o'rganamiz.....	36
12-13-dars. Biz bir-birimizga yordam beramiz.....	40
14-15-dars. Ishonamiz va tekshiramiz.....	44
16-dars. Takrorlash.....	48
17-18-dars. Men-insonman.....	50
19-20-dars. Mehr-oqibat nima?.....	55
21-dars. Halollik nima?.....	60
22-23-dars. Hurmat va xushmuomalalik.....	65
24-dars. Hurmat va xushmuomalalik.....	70
25-dars. Takrorlash.....	74
26-dars. Mehmondo'stlik.....	75
27-dars. Hamkorlik an'analari.....	79
28-dars. Kitob - eng yaxshi do'stimiz.....	85
29-dars. Bizga telefon, televizor, kompyuter nima uchun kerak?.....	90
30-31-dars. Madaniyat va ta'lim.....	94
32-dars. Ochiq osmon ostidagi muzey.....	98
33-dars. Jamoat joylarida bo'lish odobi.....	101
34-dars. Takrorlash.....	104
O'qituvchilar uchun tavsiyalar.....	106
Foydalanilgan adabiyotlar.....	109